

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA

MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

BUDJET HISOBI VA DAVLAT JAMG‘ARMALARI FAKULTETI

“TASDIQLAYMAN”

Budjet hisobi va davlat

jamg‘armalari fakulteti

dekani _____ Sh.Allayarov

“ ” _____ 2014-yil

“G‘AZNACHILIK ISHI” KAFEDRASI

QURBONOV NODIRBEK VOHID O‘G‘LI

**“G‘AZNACHILIK TIZIMIDA BUDJET NAZORATINING
MOHIYATI, SHAKLLARI VA ULAR TARAQQIYOTINING
HOZIRGI ZAMON MUAMMOLARI”**

5341700 -“G‘aznachilik ishi” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“G‘aznachilik ishi” kafedrası mudiri

_____ i.f.n., dots. A.Botirov

“ ” _____ 2014 y.

Ilmiy rahbar:

_____ ass.D.Sholdarov

“ ” _____ 2014 y.

TOSHKENT – 2014

Men, Qurbonov Nodirbek Vohid o'g'li, ushbu BMIning mustaqil bajardim, ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan holatimda BMI kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rektor buyrug'i bilan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishini bilaman.

Qurbonov Nodirbek Vohid o'g'li _____

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-5
1-BOB G‘AZNACHILIK SHAROITIDA BUDJET NAZORATINING TASHKILiy VA NAZARIY ASOSLARI.....	6-18
1.1 G‘aznachilik sharoitida budjet nazoratinining mohiyati va ahamiyati.....	6-12
1.2 G‘aznachilik sharoitida budjet nazoratining me‘yoriy huquqiy asoslari.....	12-18
II-BOB G‘AZNACHILIK SHAROITIDA BUDJET NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING AMALIYOTI TAHLILI.....	19-48
2.1 Davlat budjet nazoratini amalga oshirishda G‘aznachilik tizimining	19-35
2.2 G‘aznachilik tizimida dastlabki va joriy nazoratni amalga oshirish tartibi.....	35-48
III-BOB G‘AZNACHILIK TIZIMIDA BUDJET NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	49-53
XULOSA.....	54-55
FOIDALANILGAN ADABIETLAR RO‘YXATI.....	56-62

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasida jamiyat taraqqiyotining barcha jabxalarida, eng avvalo iqtisodiy sohada isloxlarni yanada chukirlashtirish va erkinlashtirish borasida aniq dastur ishlab chiqilgan. Bu dasturni jariy etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad O‘zbekistonning bozor isloxlarni amalga oshirish, jahon xamjamiyatiga keng integratsiyalashuvi va barqaror borish uchun mustaxkam zamin yaratishdir.

O‘zbekiston Respublikasi jaxondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasini chuqur o‘rganish natijasida qabul kilgan, o‘ziga xos millatimizning mentalitetidan kelib chiqqan holda, milliy qadriyatlarimizni o‘z ichiga oluvchi beshta tamoyilga asoslanadi.

“2013 yilda Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o‘ydi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo‘jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. Inflyatsiya darajasi prognoz ko‘rsatkichidan past bo‘ldi va 6,8 foizni tashkil etdi.

O‘tgan yil yakunlariga ko‘ra, tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 foizni tashkil etdi. Bu avvalambor xorijiy investitsiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o‘ylab yondashish natijasidir.

2013 yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig‘ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga tushirilganiga qaramasdan, davlat budjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi¹.

Bu kundagi olib borilyotgan islohotlar ushbu murakkabliklarni oldini olishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari yo‘l tutishi davrida budjet nazoratining barqaror ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishdagi roli yanada oshdi. Aholini ijtimoiy himoyalash maqsadida budjetdan ancha miqdorda mablag‘ talab

¹ 2014 yil yuqori o‘rish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi

qilinadi. Ushbu mablag'larni to'liq va o'z vaqtida etkazib berish, asosan, samarali budjet nazorati orqali ta'minlanadi. Shunday ekan budjet nazorati hozirgi davrda respublika va uning hududlarida davlat budjeti samarali ijrosini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Budjetni samarali ijrosini ta'minlashda G'aznachilik tizimiga o'tish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat budjetining g'azna ijrosi davlat byujeti va davlat maqsadli jamg'armalarining barcha daromadlarini yagona g'azna hisobraqamiga jamlash va ularni barcha xarajatini shu hisobraqamdan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari, davlat qarzlar va ularga xizmat ko'rsatish jarayonlarining tezkor nazoratini va monitoringini olib borish, davlat mablag'larining samarali ishlatilishini ta'minlash imkonini beradi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi shu jihatdan ham dolzarbdir.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Davlat budjet nazoratini tashkil etishda G'aznachilik tizimining ahamiyatini o'rganish va ularning nazariy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Mavzuning asosiy mazmunini yoritishda va tanlab olingan tadqiqot yo'nalishini yoritishda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Budjet nazoratini tashkil etishda G'aznachilik tizimining mohiyati va ahamiyatini o'rganish;
- G'aznachilik tizimini tashkil etishning huquqiy asoslarini yoritish;
- Rivojlangan davlatlarda G'aznachilik tizimini tashkil etish tajribalarini o'rganish;
- Davlat budjet nazoratini amalga oshirishda G'aznachilik tizimining faoliyati va vazifalarini tadqiq qilish;
- G'aznachilik tizimida dastlabki nazoratni amalga oshirish tartibini ko'rsatish;
- Budjet tashkilotlarining xarajatlari to'lovini amalga oshirish mexanizmini o'rganish;
- Iqtisodiyotning modernizatsiyalash sharoitida davlat budjet nazoratini

tashkil etishda G'aznachilik G'aznachilik tizimining takomillashtirish masalalarini o'rganib ,bu borada o'z mulohazalarini bildirish.

Tadqiqot ob’ekti va predmeti. davlat budjeti g‘azna ijrosini ta’minlash jarayonida yuridik va moliyaviy majburiyatlarni maydonga chiqadi.

O'zbekiston Respublikasida Moliya vazirligi G'aznachiligining davlat mablag'larini boshqarishdagi amaliy faoliyati belgilab olindi.

Mavzuning nazariy-amaliy ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, Prezident farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan me‘yoriy huquqiy hujjatlar va yo‘riqnomalar, xorijda va respublikamizda etishib chiqqan iqtisodchi olimlarning ushbu mavzuga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlari va maqolalari ilmiy ishning nazariy va uslubiy asosini tashkil etadi.

BMI tarkibining qisqacha tavsifi. ishi kirish qismi, uchta bob, xulosa qismi, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati hamda ilovalardan tashkil topgan.

Талаба миллий иқтисодиётга ғазначилик тизимини жорий этиш орқали бюджет назоратини амалга ошириш ва уни такомиллаштириш масалаларини тадқиқ этган.

Ишнинг “Ўзбекистон Республикасида бюджет назоратининг ташкилий ва назарий асослари” номли I-бобида бюджет ижросининг иқтисодий моҳияти ва аҳамияти, Ўзбекистон Республикасида “Давлат бюджетининг ғазна ижросини жорий этиш” концепциясининг яратилиши ўрганилган.

Ишнинг “Ғазначилик шароитида бюджет назоратининг амалга оширишнинг амалиёти таҳлили” номли II-бобида ғазначилик хизмати фаолиятини ташкил этиш юзасидан бюджет назоратини таҳлили ва давлат бюджети ғазначилик ижросини амалдаги ҳолатининг таҳлилига боғишланган. Ишнинг хулоса қисмида талаба миллий иқтисодиётга ғазначилик тизимини жорий этиш орқали бюджет ижроси самарадорлигини ошириш ва уни такомиллаштириш масалалари бўйича ўз тақлиф ва тавсияларини баён қилган.

1.BOB. G‘AZNACHILIK SHAROITIDA BUDJET NAZORATINING TASHKILIIY VA NAZARIY ASOSLARI

1.1.G‘aznachilik sharoitida budjet nazoratining mohiyati va ahamiyati

Davlat budjeti ijrosining yangi mexanizmini amaliyotga kiritish bugungi kunda bedjet islohotlarining yirik yo‘nalishlaridan biridir. Davlat moliyasini samarali boshqarish zaruriyati mavjud budjet mablag‘laridan samarali foydalanish uchun budjet xarajatlarining nazoratini kuchaytirish talab etiladi. Davlat budjetini boshqarishni tashkil qilish ishlarini yuqori darajada ko‘tarishni G‘aznachilik tizimisiz taminlash mumkii emas. Chunki G‘aznachilik tizimi budjet daromadlari va xarajatlarini to‘g‘ri rejalashtirish xamda moliyaviy nazorat asosida ijro qilish imkonini beradi. Eng asosiysi G‘aznachilikda kelgusi yil loyxasini tayyorlash uchun prognoz ma’lumotlari shakllntiriladi xamda budjet mablag‘larini ishlatilishida samaradorlik va mantiqlilik oshiriladi.

Ijtimoiy-iqgisodiy o‘zgarishlar, ijtimoiy-siyosiy tangliklar va moliyaviy inqirozlar sharoitida budjet nazoratining axamiyati o‘sib boradi va yangicha mazmun kasb etadi.

Budjet nazorati:

- davlat moliyaviy nazoratining muxim qismi bo‘lib, budjet jarayonida amalga oshiriladi;
- bosh maqsadi - budjet munosabatlarining barcha ishtirokchilari tomonidan budjet qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish;
- budjet tizimi budjetlari mablag‘larining tashkil topishi, taksimlanishi va foydalanilishining qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi va samarali ekanligini davlat organlari tomonidan tekshirish tadbirlari tizimi sifatida qaraladi;
- qonunbuzarliklarning oldini olish, aniqlash, fosh qilish va bartaraf etish bo‘yicha choralarni qullashga, davlat budjetini shakllantirish va xarajatlarni amalga oshirishda yangi imkoniyatlarni topishga, soliq-budjet intizomini yaxshilashga yo‘naltirilgan;
- hukumatning vakolatli organlari tomonidan hisob palatasi (O‘zbekistonning

moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi oliy mustaqil organi)ni jalb qilgan holda, moliya va soliq organlari tomonidan (xukumat ijroiya organlarining nazorati) amalga oshiriladi.

Budjet nazoratining vazifalari:


- budjet moddalari xajmi, tarkibi va maqsadlilik bo'yicha to'g'ri tuzilishi va ijro etilishini ta'minlash;
- budjet mablag'lari xisobiga xarajatlarni nazarda tutuvchi yoki budjetning shakllanishi va ijrosiga ta'sir etuvchi davlat organlarining qonun va normativ-huquqiy hujjatlari loyihalari, davlat dasturlari va boshqa hujjatlarning moliyaviy ekspertizasini amalga oshirish;
- buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritilishining to'g'riligi ustidan nazorat;
- budjet mablag'lari va budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'larining samarali va maqsadli ishlatilishi ustidan nazorat;
- barcha darajadagi budjetlar va budjetdan tashkari jamg'armalarga tushumlar to'liq va o'z vaqtida kelib tushishi ustidan nazorat;
- budjet jarayonining barcha bosqichlarida budjet va soliq intizomiga rioya kilinishi ustidan nazorat;
- turli darajadagi budjetlarning daromadlar bazasini oshirish va ularning xarajatlar qismini kamaytirish zaxiralarini aniklash;
- budjetlararo munosabatlar mexanizmini amalga oshirish ustidan nazorat;
- isrofgarchilik va moliyaviy suviste'mollikni aniqdash, soliq imtiyozlari, davlat dotatsiyalari, subvensiyalar, transfertlar va aloxida to'lovchilar yoki hududlarga boshqa turdagi yordamlarni berish bo'yicha noqonuniy qarorlarning oldini olish va aybdor shahslarga tegishli jazo choralarini qo'llash;
- budjet-moliya intizomini kuchaytirish maqsadida profilaktika, axborot-tushuntirish ishlari olib borish.

Budjet nazorati tizimi o'zida quyidagi elementlarni mujassamlashtiradi:

- nazorat sub'ekti;

- nazorat ob'ekti;
- nazorat predmeti;
- nazorat printsiplari;
- nazorat texnikasi va texnologiyasi;
- nazoratni amalga oshirish uchun dastlabki ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash;
- nazorat natijasi;
- nazorat natijasi bo'yicha qaror kabul kilish;
- nazorat samaradorligini baholash.

Yukrda sanab o'tilgan elementlar yig'indisi budjet nazorati mexanizmini tashkil etadi va u moliya (budjet) qonunchiligining normativ-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinadi.




1- rasm. Budjet nazorati mexanizmi²

Budjet nazorati predmetiga quyidagilar kiradi: budjet jarayonining barcha bosqichlari; budjetga soliq va boshqa majburiy to'lovlarning tushishi; budjetdan tashkari jamg'armalarga ajratmalar; solikdar bo'yicha hisob-kitoblar; buhgalteriya (moliyaviy) hisobi va hisoboti; maksadli budjet jamg'armalari; dotatsiyalar; subventsiyalar; ssudalar; transfertlar; tovar-moddiy boyliklarini ayirboshlash va

² Z.X.Srojiddinova. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi. Darslik. Toshkent 2010 y

tekinga berish; bojxona qiymati va boshqalar.

Moliyaviy faoliyatning ajralmas qismi hisoblangan budget nazoratiga qonuniylik, rejalilik, tizimlilik, uzluksizlik, samaralilik, oshkoralik, mustaqillik, ob'ektivlik va layoqatlilik printsiplari xosdir.



2-rasm. Budget nazoratining printsiplari³

Qonuniylik printsiipi Konstitutsiya bilan belgilangan bo‘lib, davlat va uning barcha organlari (shu jumladan nazorat organlari) qonunga muvofiq faoliyat yuritishini, jamiyat va fuqarolarning manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashini nazarda tutadi va pul mablag‘lari jamg‘armalarining yaratilishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanish jarayoni moliya va budget qonunchiligi normalari bilan mutassal tartibga solinishida namoyon bo‘ladi.

Rejalilik printsiipi davlatning moliyaviy faoliyati moliya-reja hujjatlari (davlat budjeti, mahalliy budjetlar, davlatning budjetdan tashkari jamg‘armalari

³ Z.X.Srojiddinova. O‘zbekiston Respublikasi budget tizimi. Darslik. Toshkent 2010 y

budjetlari, budjet tashkilotlari smetalari, davlat korxonalarining daromadlar va xarajatlar balansi) tizimiga asoslanganini anglatadi, ularni tuzish, tasdiqlash, ijro etish tartibi tegishli normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

Tizimlilik printsipti nazorat tadbirlarini o'tkazishda nazorat ob'ektining barcha tomonlari va uning o'zaro aloqalari vertikal va gorizontal boshqaruv tizimlari bo'yicha ko'rib chiqilishini nazarda tutadi.

Uzluksizlik printsipti barcha nazorat ob'ektlari (boshqariladigan tizim) nazorat sub'ektlari (tizimni boshqaruvchilar) tomonidan doimiy ravishda amalga oshiriladigan dastlabki operativ va davriy nazorat, ularning faoliyatlari shartlari va xususiyatlaridan kelib chikib belgilangan muddatlarda nazorat ostida bo'lishini anglatadi. Bu rejalar va vazifalarning bajarilishi ustidan doimiy kuzatishni, belgilangan ko'rsatkichlardan og'ishlar aniqlanganda faoliyatga tuzatishlar kiritish choralari ko'rilishini ta'minlaydi.

Nazoratning **samaraliligi** printsipti moliya-xo'jalik faoliyatidagi me'yordan og'ishlarni va ularning sabablarini o'z vaqtida va to'liq aniqlashda, shuningdek yuz bergan salbiy xolatlarni tezkorlik bilan bartaraf etish va etkazilgan moddiy zararni o'z vaqtida koplashda namoyon bo'ladi.

Oshkoralik printsipti jamiyat e'tiboriga ommaviy axborot agentligi orqali turli moliyaviy reja xujjatlari loyihalarini, ularning ijrosi bo'yicha berilgan xisobotlarni, moliyaviy faoliyatni tekshirish va taftish kilish natijalari mazmunini etkazishda namoyon bo'ladi.

Mustakillik printsipti nazorat kiluvchi organning moliyaviy mustakilligini, nazorat organlari raxbarlarining vakolat muddatlari parlamentnikiga nisbatan uzunligini, ularning makrmi Konstitutsiya bilan belgilanganligini ko'rsatadi.

Ob'ektivlik va layokatlilik (kompetentlik) printsipti nazorat natijalari, tekshirilgan faktlarning mazmuni konunlar, yuriknomalar va mansabdor shaxslarning faoliyatini nazorat kilishni tartibga soluvchi boshkaruv organlarining farmoyishlari bilan solishtirish asosida to'g'ri, tulik va ob'ektiv tushuntirilishini nazarda tutadi. Bu printsipt nazoratchi-taftishchilar kasbiy

maxoratining yukoriligini va ular amaldagi konun x,ujjatlariga tulik rioya kilishlarini takozo etadi.

Nazorat boshqaruvning bir funksiyasi sifatida boshqariladigan ob'ekt faoliyati monitoringini amalga oshirib, qabul kilingan qarorlar maqsadi va samaradorligini baholash va ularni ijrosi natijalari yuzasidan chetlanishlarni aniqlash va ularni tuzatishni amalga oshirish imkonini yaratadi. Shunday qilib nazorat boshqaruv tsiklining shunday bosqichida amalga oshiriladiki haqiqiy sodir etilgan voqelik qabul qilingan rejalarga muvofik keladimi yoki yuqmi? Agarda sal chetlanishlardagi holatlar salbiy bo'lsa u xolda ularni vujudga kelish sababi va aybdorlari aniqdaniladi va ularni tuzatishga qaratilgan chora tadbirlar belgilaniladi. Shunday qilib nazoratning funksiyasi ko'p qirrali bo'lib, belgilangan maqsad bilan amalga oshirilgan ishni taqqoslash maqsadida xaqiqiy axvolni tahlil kilish, nazorat qilinayotgan faoliyatni bahloash va aniqlangan kamchiliklarni tuzatish yuzasidan choralar ko'rishni o'z ichiga oladi.

G'aznachilik operatsiyalarini nazorati moliyaviy nazoratning tarkibiy qismi bo'lib G'aznachilik operatsiyalarini nazoratini haqida so'z yuritishdan oldin moliyaviy nazorat haqida tushinchaga ega bulishimiz kerak.

Moliyaviy nazorat - bu moliyaviy tekshirish va u bilan bog'liq bo'lgan masalalar xarakatini va muomalasini majmui bo'lib, xo'jalik sub'ektlari faoliyatini va boshqarishni o'ziga xos usullar va shakllar yordamida tashkil etish.

Mamlakat iqtisodiyoti va moliya tizimining samarali amal qilishining zaruriy sharti bo'lib moliyaviy nazorat xizmat qiladi.

Moliyaviy nazorat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish ustidan davlat nazoratining tarkibiy elementi bo'lib xisoblanadi. Davlat moliyaviy nazoratning boshqaruv tizimining asosiy elementi bo'lgan umumiy nazorat tizimidagi muhim o'rni va ahamiyati shundaki, birinchidan, moliya o'zi iqtisodiy kategoriya sifatida ob'ektiv tarzda nazorat funksiyasini bajaradi. Ikkinchidan, bozor iqtisodiyotida moliyaviy munosabatlarning roli oshib boradi. Barcha uzluksiz takror ishlab chiqarish jarayonlarini, xo'jalik yuritishning barcha pog'onalari, davlat boshqaruvining barcha darajalarini qamrab olar ekan moliyaviy

nazoratning universal quroli sifatida amal qiladi.

Moliyaviy nazorat - davlat tomonidan tashkil etilgan, nazorat vazifalari yuklatilgan davlat yoki mustakdl jamoat organlari tomonidan xukumat, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar faoliyatining samaradorligini anikdashga qaratilgan nazorat tizimidir. Davlat budjetini shakllantirish va sarflashdagi rezervlarni, moliyaviy va moddiy resurslarni boshqarishning barcha darajalarida operatsiyalarning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini, qonuniylik printsiplaridan chetga og'ish va ularni buzishlarni aniqlash nazorat tizimi vazifasiga kiradi. Nazoratni maqsadi - to'zatish choralarini ko'rish, aybdorlarni javobgarlikka tortilishini oldini olishdan iborat.

1.2.G'aznachilik sharoitida budjet nazoratining me'yoriy huquqiy asoslari

Bizning davlatimiz moliyaviy qonunchiligining asosiy negizi Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi bo'lib, ushbu qonunchilik respublikamiz davlat mustaqilligiga erishgan vaqtdan boshlab shakllana bordi. Respublikada mustaqillik yillarida bir qancha asosiy qonunchilik hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ular hozirgi rivojlanish bosqichida davlatning moliyaviy faoliyati huquqiy negizini yaratadi.

Davlatni boshqarish funksiyasining muhim funksiyalaridan biri bo'lgan moliyaviy nazorat davlat tuzilmasining ajralmas qismi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida moliyaviy nazoratning roli yanada oshadi. Bir tomondan, moliyaviy nazorat moliyani boshqarishning yakuniy bosqichi hisoblansa, boshqa tomondan esa, uni samarali boshqarishning zarur sharti bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy nazorat moliyaviy resurslar harakatining xamma jarayonlarini o'z ichiga oladi mablag'larni tashkil topish jarayonidan boshlab, har qanday faoliyatni boshlashdan to uning moliyaviy natijalarini aniqlashgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda, davlat mulkini xususiylashtirish natijasida moliyaviy mexanizm va moliyaviy tizimni tashkil etish talabini qo'yadi. Natijada ushbu sharoitda moliyaning o'zi kabi moliyaviy nazoratning xam maqsad va

vazifalari, shakllari tubdan o'zgardi.

Endi u faqatgina jazolovchi organ sifatida emas, balki davlatning o'z vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan mablag'larning to'liq to'planishi, budget mablag'laridan maqsadga muvofiq samarali xarajat qilishni nazorat qilish, maslahat va ko'rsatmalar berish kabi vazifalarni bajarmokda. Iqtisodiyotning markazlashmagan tizimga o'tishi, O'zbekiston Respublikasi mulklarini xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish natijasida moliyaviy nazoratning roli yanada oshadi. O'zbekiston Respublikasi rahbariyati tomonidan davlat nazoratini tashkil etish muammosiga qayta qurish jarayonida juda katta e'tibor berilmoqda va quyidagi me'yoriy xuquqiy xujjatlar qabul qilindi: O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 13 yanvar №504-XII "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi O'zbekiston Respublikasi davlat nazorati qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabr №734-XII "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, mazkur Qonunning yangi tahriri O'zbekiston Respublikasi 2000 yil 26 maydagi 78-II son Qonuniga muvofiq tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 16 fevral "O'zbekiston Respublikasida davlat nazorati tizimini takomillashtirishning ayrim choralari to'g'risida"gi Farmoni, 1996 yil 8 avgustdagi "Tekshirishlarni tartibga solish va nazorat qiluvchi organlarning faoliyatini muvofiqlashtirishni takomillashtirish to'g'risida" kabi hujjatlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etildi. Ushbu ishlar yana davom ettirilib, 2000 yildan xozirgi davrgacha O'zbekiston Respublikasi moliyaviy nazoratni Amalga oshirish Bo'yicha ko'plab qonunchilik aktlari qabul qilindi. (O'zbekiston Respublikasi "Budget tizimi to'g'risidagi", "Davlat budgetining G'aznachilik ijrosi to'g'risida"gi Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 13 dekabrda gi №UP-3161 Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 15 noyabrdagi Qarori va boshqalar).

Amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

- Ho'jalik sub'ektlarining faoliyatini davlat nazorati O'zbekiston Respublikasini

1998 yil 24 dekabr №717-1 “Xo‘jalik sub’ektlari faoliyatini davlat nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni asosida tartibga solinadi;

- Davlat nazoratini prokuror nazorati tomonidan amalga oshirilishi tegishli qonunchilik asosida tartibga solinadi;
- Davlat nazoratini soliq tekshiruvlari yo‘li bilan amalga oshirish tegishli soliq qonunchiligi tomonidan belgilanadi. Lekin O‘zbekistonda moliyaviy nazoratni tashkil etishga alohida e‘tibor qaratilganligi bilan umumiy qabul qilingan jahon amaliyotiga to‘liq mos keltirish bo‘yicha tegishli ishlarni amalga oshirish lozim.

Moliyaviy nazorat tizimi o‘z tarkibida - sub’ektlar (nazorat qiluvchilar), ob’ektlar (nazorat qilinuvchilar), nazoratning usul va vositalarini birgalikda jamlaydi. Moliyaviy nazoratning maxsus uslublari: doimiy monitoring-kuzatuv, markazlashgan topshiriqlar bo‘yicha tekshirish, xarajatlar smetasining ijrosi yuzasidan hujjatli taftish, xo‘jalik faoliyati tahlili singari birmuncha xususiy uslublarga bo‘linadi. Oraliq vazifalarni bajarish uchun hujjatlarni muqobil tekshirish, pul mablag‘lari va moddiy boyliklarni ro‘yxatga olish, miqdor hisobni tiklash va boshqalardan foydalaniladi.

Moliyaviy nazorat, shuningdek majburiy va o‘z tashabbusiga ko‘ra amalga oshirilishi mumkin. Nazorat samaradorligiga rasmiy va mantiqiy, hujjatlar va faktlar asosidagi tekshirishlar kabi xilma-xil usullarni qo‘shib foydalanish orqali erishiladi. Bundan tashqari, budjet ijrosining nazorati to‘liq yoki qisman, kompleks yoki mavzuli, yoppasiga yoki tanlab o‘tkaziladigan nazorat turlariga bo‘lish tekshirish hajmi, yoki tekshirilayotgan ob’ektning to‘liq qamrab olinishiga bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi ham moliyaviy nazorat sohasida jahondagi rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda, ularda mavjud bo‘lgan moliyaviy nazorat tizimiga o‘tish borasida muhim bo‘lgan ishlar amalga oshirilmokda. Jumladan, har tomonlama xolis bo‘lgan, ijroiya hukumatiga emas, balki qonun chiqaruvchi davlat organiga bo‘ysunuvchi O‘zbekiston Respublikasi hisob palatasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 21 iyundagi PF-3093 sonli «O‘zbekiston Respublikasi hisob palatasini tashkil etish

to'g'risida»gi farmoniga asosan tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyxasini amalga oshirishga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2002 yil 26 aprelda 144-son Qaror qabul qilindi. Mazkur loyxani amalga oshirishga Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan 400.0 ming AQSh dollari miqdorida mablag' ajratildi. Qarorda aytilishicha, Yaponiya hukumati tomonidan O'zbekiston Respublikasida moliya axborot tizimining funktsional va texnikaviy tuzilmasini ishlab chiqishga 500.0 ming AQSh dollari miqdorida grant berilishi bildirildi.

Mazkur loyihaaning maqsadi davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish, zamonaviy kompyuterlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan xolda budget mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlash, budget ijrosining yangi tizimini yaratishdan iboratdir. Ko'rsatib o'tilgan loyxani amalga oshirish yuzasidan mas'uliyat O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligiga yuklatildi.

Loyxani tayyorlash va amalga oshirish maqsadida muvofiqlashtiruvchi kengash tuzildi. Bu kengashning asosiy vazifalari etib quydagilar belgilandi:

- loyxani tayyorlash va amalga oshirish bo'yicha monitoring olib borish;
- loyxa doirasida jalb etiladigan vaqolatli organlar konsalting qompaniyalari faolnyatni muvofiqlashtirish;

- loyxani tayyorlash va amalga oshirish uchun jalb qilinadigan mablag'lardan samarali foydalanish nazoratini taminlash:

- tender savdolarini o'tkazish bo'yicha qarorlar qabul qilish va ularni natijalarini, tender qomissiyalari tarkibini tasdiqlash.

O'zbekiston Respublikasi xukumatining davlat moliyasini isloh qilish bo'yicha muxim qadamlaridan biri 2004 yil 26 avgusidagi O'zbekiston Respublikasining "Davlat budjeti g'azna ijrosi to'g'risidagi 664-11 sonli Qonunini qabul qilish bo'ldi. Bu Qonun budget mablag'lari xarajatlarini boshqarish va nazorat qilish jarayonlariga keskin o'zgarishlar kiritildi. Ushbu Qonunni maqsadi O'zbekiston Respublikasi Davlat byujetini va budget tashkilotlarini budjetdan tashqari mablag'larini g'azna ijrosi soxasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Keyingi me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib 2006 yilda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligida 1599-raqam bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqarish tomonidan qabul qilingan Samarqand viloyati va Toshkent shahar mahalliy budjetlarini g'azna ijrosi to'g'risidagi Vaqtinchalik qoidalarni tasdiqlash tug'risidagi qo'shma Qarori xizmat qiladi.

Ushbu Qaror 2006 yil 3 avgustdan kuchga kirdi. Mazkur Vaqtinchalik qoidalar O'zbekiston Respublikasining "Davlat budjeti g'azna ijrosi to'g'risida"gi va "Budjet tizimi to'g'risida"gi Qonunlariga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 27 dekabrda O'zbekiston Respublikasining 2006 yilning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi PQ-244-sonli Qarorining 18-bandiga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Samarqand viloyati mahalliy budjeti g'azna ijrosini amalga oshirish tartibini belgilab berdi.

Davlat budjetining g'azna ijrosini tadbiq etish hisobiga budjet tizimini yanada isloh etish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilgan xolda budjet mablag'larini maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni quchaytirish barcha hrajalardagi budjet daromad va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida 2007 yil 28 fevralda "Davlat budjeti g'azna ijroiti tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-594 sonli Qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat budjetining g'azna ijrosini tadbiq etish va uslubiyoti boshqarmasi hamda mahalliy moliya organlarining G'aznachilik bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning xududiy bo'linmalari tashkil etildi.

PQ-594-son Qarorning bandlarini bajarish doirasida 2007 yil 20 martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 53-sonli Qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi to'g'risida Nizom tasdiqlandi. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

G'aznachiligining asosiy vazifalari, fuqaroliklari, vakolatlari va javobgarligini belgilab berildi

G'aznachilik o'z faoliyatini davlat boshqaruvini boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, boshqa tashkilotlar bilan o'zaro xamkorlikda bevosita va o'zining xududiy bo'linmalari orqali amalga oshiradi.

G'aznachilik Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxri G'aznachilik boshqarmalari xamda tumanlar (shaxarlar) G'aznachilik bo'linmalari O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muxrga ega bo'ladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxri G'aznachilik boshqarmalari yuridik shaxslar xisoblanadi.

2007 yil 30 avgustdada O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi "Davlat budjeti g'azna ijrosi bo'yicha funksiyalarini chegaralash to'g'risida Nizomni 119-sonli buyrug'i bilan tasdiqladi. Ushbu buyruq bilan tasdiqlangan Nizom O'zbekiston Respublikasi budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjet va mahalliy budjetlarning g'azna ijrosi borasida Qozog'iston Respublikasi Moliya Vazirligi Markaziy aparat tarkibiy bo'linmalari (G'aznachilikdan g'ashqari), Moliya organlari zimmalariga qo'yilgan funksiyalar bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari zimmalariga yuklatilgan funksiyalarini chegaralab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligini 2009 yil 4 avgustdagi 69-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 16 sentabrda 2007-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Davlat budjetining g'azna ijrosi Qoidalari" qabul qilindi.

2014 yil O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida PQ-2099 sonli qarori,

2014 yildan kuchga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi.

Unda:

- O‘zbekiston Respublikasi byudjeg‘ tizimi tuzilishi va uni boshiqarish asoslarini;
- Davlat budjetini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish va ijro etish tartibini;
- Davlat budjeti daromadlarini shakillantirish va xarajatlarini amalga oshirish oshirilishi;
- Davlat byudjeg‘i tuzilmasiga kiruvchi byudjeg‘lar o‘rg‘asidagi o‘zaro munosabatlarni, davlat budjeti mablag‘lari bilan operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida xisobga olish, xisobot va nazorat qilish tartibini belgilaydi.

Byudjeg‘ tashkilotlarini mablag‘ bilan ta‘minlash mexanizmlarini takomillashtirish budjet mablag‘laridan samarali va manzilli foydalanishni amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining “Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 414-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu Qaror bilan budjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirishning printsiptal jihatdan yangi tartibi belgilandi⁴.

⁴ “Byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta‘minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-son qaror.

II-BOB. G‘AZNACHILIK SHAROITIDA BUDJET NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING AMALIYOTI TAHLILI.

2.1. Davlat budjeti nazoratini amalga oshirishda G‘aznachilik tizimining faoliyati

G‘aznachilik tizimi budjet xarajatlarini Yagona G‘azna hisobvarag‘i asosida amalga oshirilishi moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirishga yordam beradi. Xarajatlar smetasiga muvofiq, to‘lovlar rejasini joriy qilish, yagona axborot tizimini joriy etish, budjet mablag‘lari ishlatilishini tahlil qilish, budjet tashkilotlari xarajatlarini dastlabki va joriy nazorat mexanizmini takomillashtirish imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasida Davlat budjeti ijrosining G‘aznachilik tizimini joriy etilishi bilan dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni amalga oshirish budjetdan mablag‘ oluvchilar, moliya organlari bilan birgalikda G‘aznachilik organlariga ham yuklatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2008 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 744-son Qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2008 yil 1 yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan Buxoro, Farg‘ona viloyatlari va Toshkent shahrida 1 o‘quvchiga (tarbiyalanuvchiga) xarajatlarning bazaviy me‘yorlaridan kelib chiqqan holda maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari, umumta’lim maktablari va kasb-hunar kollejlarning budjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirishning yangi tartibi joriy etiladi.

Budjet tashkilotlarini saqlash uchun tuzilgan smetalar asosiy reja hujjati bulib hisoblanadi. Bu hujjat barcha tashkilotlarga budjetdan ajratilayotgan mablag‘lar hajmini, maqsadli yunalishini va choraklar buyicha taksimotini aniqlab beradi.

- ✦ Xarajatlar smetasi – tashkilot biznes-rejasining tarkibiy qismi
- ✦ Xarajatlar smetasi – boshqaruvning rejalashtirish va nazorat qilish dastaklaridan biri

- ✦ Xarajatlar smetasi – takshkilotga ajratilgan budjet mablag‘larining hajmi, maqsadli yo‘nalishi va yil choraklari (G‘aznachilik tizimida – oylar) bo‘yicha taqsimlanishini belgilab beruvchi asosiy moliyaviy xujjat

Smetalarning turlari: yakka (individual) smetalar, umumlashgan smetalar, yig‘ma smetalar. Tegishli budjet qabul qilingandan keyin smetalarni tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish muddatlari belgilangan.:

- ✓ 2 hafta ichida tasdiqlanishi kerak;
- ✓ 40 kundan kechikmay ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak.

Umumiy va individual smetalarni ko‘rib chiqish va tasdiqlash tartibi quyidagilardan iborat:


- ⇒ smeta bo‘ysinuviga ko‘ra tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlari rahbarlari tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi.
- ⇒ smeta uch nushada tuziladi va maktab direktori hamda hisobchi xodim tomonidan imzolanadi.
- ⇒ smetaning bir nushasi tashkilotda qoladi, ikkinchi nushasi moliyalashtiruvchi organga, uchinchi yuqori turuvchi tashkilotga (Tuman, shahar XTB) topshiriladi.

Budjet tashkilotlarida IV guruh moddalari bo‘yicha xarajatlarni rejalashtirish va hisob-kitob qilishning o‘ziga hos xususiyatlari mavjud:

- amaldagi narhlar va tariflar asosida hisoblab chiqariladi;
- natural shaklda ajratilgan limitlar asosida aniqlanadi;
- hisoblagichlarning ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘tgan yildagi haqiqiy xarajatlar inobatga olinadi;
- har bir birlik uchun o‘rnatilgan xarajat me‘yorlariga rioya etiladi;
- energiya-yoqilg‘i va boshqa resurslarni iqtisod qilish rejimiga rioya etiladi.

Boshlangan moliya yilidagi xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda avvalgi moliya yilining oxirgi choragidagi budjetdan ajratiladigan mablag‘larning uchdan bir qismidan ortiq bo‘lmagan miqdorlarda, ularni boshlangan moliya yilida amalga oshirilishi

rejalashtirilmagan xarajatlar summasiga aniqlashtirilgan holda, har oyda amalga oshiriladi.



1.-rasm. Budjet tashkilotlarining xarajatlarini to'lanishi⁵

G'aznachilik bo'linmasi tomonidan daromad tushumlarini bankdan olingan hujjatlar asosida G'aznachilik dasturiga tushirib boriladi va har kunlik daromad qismi bo'yicha tenglik balans chiqariladi, o'tgan kungi hisob raqamdagi qoldiq va bu kungi tushum qo'shib balans chiqariladi. Budjet xarajatlari ijrosi jarayonida ma'lumotlar oqimi va o'zaro munosabatlar har kungi daromad qismi balans chiqarilgandan so'ng hisob raqamdagi qoldiqqa ko'ra xarajatni chiqarish rejalashtiriladi. G'aznachilik bo'limiga budjet tashkilotlarni yillik smeta xarajati

⁵ G.Qosimova. "G'aznachilik". O'quv qo'llanma 2013 yil. Iqtisod-Moliya.

taqdim qilinadi va ushbu smeta xarajatlari xar bir tashkilot bo'yicha dasturga kiritiladi va shu smetaga asosan xarajatlar amalga oshirilib boriladi.

G'aznachilik organlari tomonidan budget tashkilotlariga mablag' berishdan oldin, to'lov hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirish, bu xarajatlar smetalarida ko'rsatilganligi va belgilangan limitlar doirasida ekanligi, o'tkaziladigan pul uchun mahsulotlar olinganligi, xizmatlar ko'rsatilganligi, belgilangan narxlarni tekshirish dastlabki nazorat doirasiga kiradi. Dastlabki nazorat kassa ijrosidan oldin o'tkaziladi. Xorijiy davlatlarda bunday tekshiruv G'aznachilik auditorlari tomonidan o'tkaziladi. Dastlabki nazorat budget tashkilotlari, mahalliy xokimiyat organlari tomonidan budget qonunlariga zid holda chiqarilgan farmoyishlar ijrosini to'xtatish imkoniyatini beradi.

Davlat budgetning barcha xarajatlari har bir budget oluvchi uchun o'zining qat'iy yo'nalishiga ega. Bu yo'nalish budget tasnifi kodlariga ega: bob, bo'lim, bo'linma, maqsadli bo'linma, xarajat turi. Shundan kelib chiqqan holda, har bir budget oluvchiga bir necha shaxsiy hisobraqam ochiladi. Har bir hisob raqam bo'yicha iqtisodiy tasnifga asosan bir necha yo'nalish beriladi. Budgetdan mablag' oluvchilarning budget mablag'laridan qonunga muvofiq maqsadli foydalanishi ustidan nazoratni Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari amalga oshiradi.

Budget mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalariga tegishli moliya organlari tashabbusi bilan o'zgartirishlar kiritilgan hollarda, ular tomonidan o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan taqdimnoma yoki ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihalari G'aznachilik bo'linmalariga imzolash uchun taqdim etiladi. G'aznachilik bo'linmalari taqdimnomada taklif qilinayotgan o'zgartirishlarni amalga oshirish imkonini, taklif qilinayotgan o'zgartirishlar summasini tegishli budget mablag'larining taqsimlovchilari (oluvchilari) bo'yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlar, shuningdek kassa xarajatlari bilan band qilinmagan ajratilgan budget mablag'lari qoldiqlari bilan solishtirish orqali amalga oshiradi.

G'aznachilik bo'linmalari taklif qilinayotgan o'zgartirishlarni amalga oshirish

imkonini tekshirishni, taklif qilinayotgan o'zgartirishlar summasini yuridik va moliyaviy majburiyatlar, shuningdek tegishli budjetda turuvchi, barcha budjet mablag'larini taqsimlovchilar (oluvchilar) ning tegishli bo'lim, bob, paragraf va xarajatlar moddalari bo'yicha kassa xarajatlari bilan band qilinmagan ajratilgan budjet mablag'lari qoldiqlari bilan solishtirish orqali amalga oshiradilar.

Davlat budjeti majburiyatlari budjet tashkilotlari majburiyatlarning yig'indisidan iborat bo'ladi. Davlat budjetini budjet tasnifi orqali tartibga solinishi, budjet majburiyatlari nazorati, buxgalteriya xisob-kitobining yuritilishi, hisobotni sifatli tayyorlanishi halqaro iqtisodiy aloqalarni amalga oshirilishida muhim o'rin tutadi. Majburiyat me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asosan majburiyat qabul qilish huquqi bo'lgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi (tashkilot rahbari yoki uning buyrug'i bilan vakolat berilgan mas'ul shaxs). Budjet tashkilotlari tomonidan qabul qilingan majburiyatlar summasi tasdiqlangan budjet mablag'lari me'yoridan oshib ketmasligi lozim.

Shartnomalardagi majburiyatlarni hisobga olish tizimida uch asosiy omil: majburiyatlarni qabul qilish asoslari, majburiyat qabul qilish huquqiga ega mas'ul shaxslar faoliyati va budjet tashkilotlari majburiyatlarning ikki turi mavjud.

Majburiyatlarni qabul qilish budjet mablag'ini oluvchilarining vazifasiga kiradi. Budjet mablag'lari oluvchilari budjet tashkiloti rahbari yoki bu vazifa yuklatilgan shaxslar hisoblanadi.

G'aznachilik tomonidan xizmat ko'rsatiladigan barcha budjetdan mablag' oluvchi tashkiloti rahbarlari va bosh hisobchi imzo namunalari hamda budjet tashkiloti muhri namunalari bo'lishi kerak, namunalar G'aznachilikning maxsus kartochkalarida saqlanadi. Budjet mablag'lari oluvchi - budjet tashkilotining rahbari yoki u tomonidan vakolat berilgan mas'ul shaxslar majburiyatlarni qabul qilish huquqiga ega. Majburiyatlarni qabul qilish budjet mablag'ini oluvchilarining vazifasiga kiradi. Budjet mablag'lari oluvchilari budjet tashkiloti rahbari yoki bu vazifa yuklatilgan shaxslar hisoblanadi.

Budjet tashkiloti majburiyatlarning turlari	
Yuridik majburiyat	Moliyaviy majburiyat
Shartnoma tegishli tartibda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin yuridik majburiyat vujudga keladi	Tovar va xizmatlar etkazib berilgandan keyin schyot-faktura yoki budjet tashkilotining kreditorlik qarzi mavjudligi tasdiqlovchi hujjat bo'lgan sharoitda moliyaviy majburiyat vujudga keladi
Shartnomani imzolashdan oldin budjet mablag'lari mavjudligi tekshiriladi	Moliyaviy majburiyat G'aznachilikning Bosh kitobida qayd qilinadi
Shartnoma to'liq yuridik kuchga ega bo'lishi uchun G'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tiladi	Moliyaviy majburiyat shartnoma yoki boshqa kelishuvlarining muddati o'tgunga qadar qoplanadi
Yuridik majburiyatlarni hisobga olishni asosiy maqsadi budjet nazoratining samaradorligini oshirishdan iborat, harajatlarning tasdiqlangan rejadan oshib ketishiga yo'l qo'ymaydi.	

2.1-rasm. Budjet tashkiloti majburiyatlarning turlari⁶

Yuridik majburiyat budjet tashkiloti bilan kontragent o'rtasida tovarni etkazib berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) to'g'risida shartnoma imzolanib, shartnoma tegishli tartibda G'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin vujudga keladi. Moliyaviy majburiyat shu shartnomaga muvofiq tovarlar etkazib

⁶ G.Qosimova. "G'aznachilik". O'quv qo'llanma 2013 yil. Iqtisod-Moliya.

berilgan (ishlar bajarilgan, xizmatlar ko'rsatilganidan) keyin vujudga keladi. Moliyaviy majburiyatning yuzaga kelishi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi talab etiladi. Masalan, schyot fakturalar, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi olish-topshirish dalolatnomalari, ish haqi qaydnomalari (vedomostlar) va boshqa shu kabi hujjatlardir.

G'aznachilik tizimi budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirishda uch bosqichli nazoratni to'liq joriy qilishni taqozo etadi. Budjet tashkiloti mahsulot etkazib beruvchi (kontragent)dan tovarlar sotib olish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) to'g'risida ofertani (taklifni) qabul qilib olganidan so'ng, shartnomani aktseptlaydi (imzolaydi) va G'aznachilikka ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etadi. Yuridik majburiyat vujudga kelishi uchun mazkur shartnomaning ro'yxatdan o'tkazilishi talab qilinadi.


Yuridik majburiyat budjet tashkiloti bilan kontragent o'rtasida ma'lum bir muddatdan so'ng ma'lum bir tovarni etkazib berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) to'g'risida shartnoma imzolanganidan va bu shartnoma tegishli tartibda G'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin vujudga keladi. Yuridik majburiyatlarning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- shartnoma ro'yxatdan o'tgandan keyin vujudga keladi;
- shartnomani imzolashdan oldin budjet mablag'lari mavjudligi tekshiriladi;
- shartnoma to'liq yuridik kuchga ega bo'lishi uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachilik boshqarmalari va bo'limlarida ro'yxatdan o'tiladi.

Yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishda narxlar monitoringini amalga oshirish zaruriyati vujudga keladi. Bunda budjet tashkiloti tomonidan sotib olinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxi muqobil etkazib beruvchilar narxlari bilan taqqoslanadi. Budjet amaliyotida muqobil etkazib beruvchilar to'g'risida ma'lumot to'plashning turli usullari mavjud. Masalan, tovar xom-ashyo birjalari, bozorlardan ma'lumotnomalar, raqobatchi tashkilotlardan tijorat takliflari, ommaviy axborot vositalari va ixtisoslashtirilgan reklama nashrlaridagi

ma'lumotlarni umumlashtirish mumkin. Har bir shartnomaga bir nechta (eng kamida 4 ta) etkazib beruvchining tijorat taklifi ilova qilinishi, bunda har bir etkazib beruvchining rekvizitlari (nomi, manzili, telefon raqamlari, rahbari to'g'risidagi ma'lumotlari) aniq ko'rsatilishi, etkazib beruvchilar shu sohada uzoq yillik ish tajribasiga ega bo'lgan, yuqori mavqeli korxonalar bo'lishi lozim. O'zbekistonda ishlab chiqariluvchi tovarlar vositachilarsiz, aynan ishlab chiqaruvchining o'zidan sotib olinishi, chetdan keltiriluvchi tovarlar esa bevosita importyordan sotib olinishi narxlarning asossiz o'sishining oldini oladi.

Budjet tashkilotlarining tovar (ish, xizmat)lar etkazib beruvchilar bilan shartnomalarini G'aznachilik tomonidan ro'yxatga olinishi mazkur muayyan budjet tashkilotlarining to'lashga qodirligi Davlat tomonidan tasdiqlanishini bildiradi va etkazib beruvchi uchun shartnoma shartlari bajarilganda to'lov kafolati hisoblanadi. Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarida, ya'ni daromadlar tushmagan paytda oldin qabul qilingan majburiyatlar bo'yicha xarajatlar amalga oshirilishi lozim bo'lishini e'tiborga olinadi. Buni yaqqol ko'rish uchun budjet tashkilotlari tomonidan budjetning g'azna ijrosi joriy qilinishidan oldin va keyin shartnomalar tuzishni o'rganamiz.



2.2.-rasm. Budjetning g'azna ijrosida budjet tashkilotlarining shartnomalar tuzish tartibi⁷

Bunda:

БТ - budjet tashkiloti;

⁷ G.Qosimova. "G'aznachilik". O'quv qo'llanma 2013 yil. Iqtisod-Moliya.

BTEB - budget tashkiloti uchun tovar (ish, xizmat) lar etkazib beruvchi;

G'B - G'aznachilik bo'linmasi.

Shartnomani ro'yxatdan o'tkazish budjetdan mablag' oluvchi tomonidan shartnoma taqdim etilgan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida shartnoma asl nusxasi va ko'chirma nusxasining birinchi varag'iga "Ro'yxatdan o'tkazildi" yozuvini qo'yish va ro'yxatdan o'tkazish raqami va sanasi ko'rsatilgan holda amalga oshiriladi, ularni G'aznachilik organining mansabdor shaxsi o'z imzosi va G'aznachilik muhri izi bilan tasdiqlaydi. Ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomaning ko'chirma nusxasi hisobga olish va saqlash uchun G'aznachilikda qoladi, asl nusxasi budjet tashkilotiga qaytarib beriladi. G'aznachilikda yuridik majburiyat vujudga kelishidan avval dastlabki nazoratni amalga oshirish imkoniyati mavjud, bu narxlar monitoringi orqali ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 dekabrda PQ – 744 sonli "O'zbekiston Respublikasining 2008 yilgi asosiy makro-iqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjetining parametrlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish bo'yicha xo'jalik shartnomalarni belgilangan tartibda tegishli G'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng o'rnatilgan tartibda va to'lov grafigiga asosan 15% (elektr energiyasi to'lovi va 3 guruh xarajatlaridan kapital qurilishga 30%, 4 guruh xarajatlaridan kapital qurilishga 30% gacha hamda YoMM va aloqa xizmati uchun 100%) oldindan to'lovni amalga oshirish kerak.

Shartnomani hisobga olish G'aznachilik tomonidan budjetdan mablag' oluvchi va etkazib beruvchining nomi hamda rekvizitlari, shartnoma summasi, uning raqamlari va tuzish sanasi, budjetdan mablag' oluvchilar bilan etkazib beruvchilar o'rtasida tuzilgan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish kitobida ro'yxatdan o'tkazish raqami va sanasi ko'rsatilgan holda amalga oshiriladi .

G'aznachilikda budjet tashkilotlari tomonidan sotib olinuvchi tovarlar narxlarini to'g'risida elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish, uni tuzish va yangilab borishda Respublika tovar xom ashyo birjasidagi narxlar kotirovkasini, Davlat Bojxona qo'mitasi ma'lumotlar bazasini, respublikadagi yuqori mavqega ega

bo'lgan ishlab chiqaruvchilar va ixtisoslashtirilgan reklama nashrlari ma'lumotlarini hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahsulotlar, xom ashyo va materiallarning yuqori likvidli turlarini sotishning bozor mexanizmlarini joriy etishni davom ettirish to'g'risida"gi 57-sonli Qarori asosan, birja savdolarida (kim oshdi savdolarida) va to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha sotib olingan mahsulotlarga (elektr energiyasi va tabiiy gaz bundan mustasno) shartnomalar haqini oldindan to'liq to'lash yoki tovarlarning etkazib beriladigan har bir turkumi uchun chaqirib olinmaydigan akkreditiv qo'yish shartlarida tuziladi. To'lov jadvalida sana shartnoma va majlis bayoni bilan bir kun yoki keyingi sanalar belgilanishi mumkin. To'lov jadvalidagi sana G'aznachilik bo'linmasiga shartnoma topshirilgan sana hisoblanadi, uch kun ichida shartnomani ko'rib chiqish muddati boshlanadi. Budgetdan mablag oluvchiga shartnoma bo'yicha mol etkazib beruvchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 4 iyundagi "Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanishni tartibga solish to'g'risida" 380-qaroriga muvofiqligi tekshiriladi. Shartnomada tovar va xizmatlar spetsifikatsiyasi mavjud bo'lishi shart. Spetsifikatsiya jadval ko'rinishida bo'lib, unda tovar va xizmat nomi, soni, narxi va summasi ko'rsatilishi kerak. Agar sotib olinadigan tovar va xizmatlar soni ko'p bo'lib, jadval hajmi katta bo'lib ketsa, spetsifikatsiyani alohida ishlab chiqiladi va shartnomaga ilova sifatida keltiriladi, spetsifikatsiyaga shartnomadagi rekvizitlar qo'yiladi. G'aznachilik organlari budget tashkiloti bilan tabiiy gaz etkazib beruvchi tashkilot o'rtasida tuzilgan shartnoma hamda shartnomaga taqdim etilgan to'lov jadvaliga asosan ro'yxatdan o'tkazadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasining Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va Statistika Davlat qo'mitalari hamda hududlardan oziq-ovqat mahsulotlarning asosiy iste'mol turlari bo'yicha respublika ichki bozorlaridagi amaldagi narxlar to'g'risida olingan ma'lumotlardan kelib chiqib, belgilangan eng yuqori cheklangan narxlarni har

oyda tasdiqlangan xolda G‘aznachilikka viloyatlar hamda tumanlar kesimida taqdim etadi.

Budjetdan mablag‘ oluvchilar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish bo‘yicha tuzilgan shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonida Moliya Vazirligi tomonidan taqdim qilingan ma’lumotda ko‘rsatilgan narxlardan ortiq bo‘lgan narxlarda tuzilgan shartnomalar G‘aznachilik hududiy boshqarmalari va bo‘linmalari tomonidan ro‘yxatga olinmaydi.


Davlat budjeti ijrosida G‘aznachilik tizimini joriy etilishi bilan dastlabki va joriy moliyaviy nazorat shakllarining samaradorligi keskin oshirish ta’minlandi. Shartnomalarni tuzish jarayonida hali shartnoma yuridik kuchga ega bo‘lmay turib, uning nazorati amalga oshiriladi. Bu esa, qonun buzilishi holatlari yuz bergandan so‘ng aybdorlarni jazolashga qaratilgan nazoratdan voz kechib, qonun buzulishi holati yuz berishining oldi olinishi ta’minlanadi. Budget mablag‘lari oluvchilarining mahsulot etkazib beruvchilar (ish bajaruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi) bilan tuzayotgan shartnomalarni xarajatlar smetasida nazarda tutilgan mablag‘lar doirasida tuzilishini ta’minlanishi, to‘lovlarning faqat G‘aznachilik tomonidan ro‘yxatga olingan shartnomalar bo‘yicha smetada ko‘zda tutilgan mablag‘lar qoldig‘idan kelib chiqib to‘lanishi budget mablag‘ini oluvchilar kreditorlik karzlarini minimallashtirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy majburiyatlarni hisobga olishning asosiy maqsadi - qabul qilingan yuridik majburiyatlar, tasdiqlangan budget rejasi me’yorida harajatlarni amalga oshirishni ta’minlash hamda budget tashkilotlari kreditorlik qarzlarini nazorat qilishdir. “Moliyaviy majburiyat - yuridik (jismoniy) shaxslarning ikkinchi tomon, tovar (ish va xizmat)lar etkazib beruvchilar oldidagi etkazib berilgan tovar (ish va xizmat)lar uchun xaq to‘lashni tasdiqlovchi hujjatlardir”⁸. Masalan, hisob-to‘lov hujjatlarida hisoblangan xodim va ishchilarga ish haqi, to‘lov hujjatlari, sud qarorlari hamda budjetdan mablag‘ oluvchilarni mol etkazib beruvchi yoki to‘lovni qabul qiluvchiga mablag‘larning o‘tkazilish majburiyatini yuklovchi hujjatlar

⁸ O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuni. 1998. 29 avgust.

bo'lishi mumkin.

Moliyaviy majburiyat shartnomaga muvofiq tovarlar etkazib berilgan (ishlar bajarilgan, xizmatlar ko'rsatilganidan) keyin vujudga keladi. Moliyaviy majburiyatning yuzaga kelishi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi talab etiladi. Masalan, schet fakturalar, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi qabul qilib olish-topshirish dalolatnomalari (akt priema-sdachi), ish haqi qaydnomalari (vedomostlar) va boshqa shu kabi hujjatlar. Mazkur hujjatlar tegishli vakolatga ega bo'lgan mas'ul shaxslar tomonidan imzolanishi va tashkilot muhri bilan tasdiqlanishi shart. Budjet tashkilotlari amaldagi qonunchilik talabiga ko'ra eng kamida oldindan 15 foiz to'lov amalga oshirilishini ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratishlari talab qilinadi. Moliyaviy majburiyat shartnoma yoki boshqa kelishuvlarning muddati o'tgunga qadar qoplanishi lozim.



2.3-rasm. G'aznachilikda budjetdan mablag' oluvchilarning to'lovlarning amalga oshirish⁹

Budjet tashkiloti tasarrufida bo'luvchi pul mablag'lari miqdori moliya organi tomonidan tasdiqlangan smeta bilan cheklangan. Yuridik majburiyatlari ham

⁹ G.Qosimova. "G'aznachilik". O'quv qo'llanma 2013 yil. Iqtisod-Moliya.

smetada ko'rsatilgan xarajat moddalari doirasidan chetga chiqmasligi nazorat qilinadi. Budget tashkilotlari moliyaviy majburiyatlari limiti ularning tasarrufida bo'lgan pul mablag'lari bilan belgilanadi.


G'aznachilikda pul mablag'larini samarali boshqarish, moliyaviy majburiyatlarning limitini baholash uchun xarajatlarni amalga oshirish ruxsatnomalar (XAOR) joriy etiladi. Bunda har haftada pul mablag'larini boshqarish bo'linmasi kassa rejasini yangilaydi va XAOR hajmini belgilaydi. Keyin budget tasnifiga muvofiq budget tashkilotlariga XAOR beriladi. XAORlar muayyan muddatga yoziladi va shu muddat o'tgandan so'ng ular o'z kuchini yo'qotadi. Biroq, budget prognozlashtirilganga nisbatan ozroq daromad olsa, xarajatlarni amalga oshirish ruxsatlari to'liq hajmda berilmaydi.

Shuning uchun, yillik assignovaniyalar va smetalar aniqlashtirilmaguncha, xarajatlarni amalga oshirish ruxsatnomalarni olish uchun rejadan tashqari budgetlararo ssudalar taqdim etilishi mumkin. G'aznachilik XAORlar chiqarilishi va to'lanishi, yuridik majburiyatlarning ro'yxatga olinishi, schet-fakturalarning va to'lovga arizalarning yozilishi, arizalarning tasdiqlanishi va to'lov amalga oshirilishi uchun mas'ul bo'lib hisoblanadi.

G'aznachilik tizimini joriy etish bilan budget tashkilotlari tomonidan G'aznachilik organlari oldida amalga oshirilgan xarajatlarning asosililigini tasdiqlash (hisob-fakturalar, yuk xatlari, shartnomalarning mavjudligi, tovarlar, ishlar va xizmatlar me'yorlariga rioya etilishi) mexanizmini joriy etish yo'li bilan ajratilgan budget mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan oldindan va moddalar bo'yicha nazoratni o'rnatildi.

Davlat budgetining g'azna ijrosi jaryonida Davlat budgeti mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan ikki bosqichli nazorat olib borilishini ko'zda tutiladi, ya'ni dastlabki va joriy nazorat. Dastlabki nazorat tovar, ish va xizmatlar etkazib beruvchilar oldida budget tashkilotlari tomonidan majburiyatlarni qabul qilish shartnoma tuzish bosqichida amalga oshiriladi. Joriy nazorat dastlabki nazoratdan tashqari davlat budgetining g'azna ijrosini amalga oshirish, davlat xarajatlarining manzillar ro'yxati va o'rinli ijrosi ustidan

joriy nazoratini sifat jihatdan yaxshilashga sharoit yaratadi.



2.4.-rasm. Shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish tartibi¹⁰

Shartnomaviy majburiyatlar va solishtirish natijalarini g'azna jurnallarida ro'yxatdan o'tkazilib boriladi. Budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshiriladi hamda moliyaviy nazorat mexanizmi takomillashtiriladi. Bu vazifalar G'aznachilikda budjet mablag'larini egalariga tez va o'z vaqtida etib borishini ta'minlaydi.

Mazkur imkoniyat budjet ajratmalarini taqsimlaydigan xodimlar tomonidan suis'temol qilinishi va noaniqlik holatlarini bartaraf etadi.


Budjet mablag'larini oluvchilarning xarajatlarini G'aznachilik bo'limlari tomonidan to'lash bo'yicha elektron to'lov xujjatlari budjet mablag'larini oluvchilarning ikki nusxada taqdim etiluvchi to'lovlarni amalga oshirish to'g'risidagi arizasi va to'lov topshiriqnomasi asosida shakllantiriladi. Tegishli tartibda to'ldirilgan to'lov topshiriqnomasi budjet mablag'larini oluvchilari tomonidan G'aznachilik bo'limlariga taqdim etiladi. Bunda to'lov

¹⁰ G.Qosimova. "G'aznachilik". O'quv qo'llanma 2013 yil. Iqtisod-Moliya.

topshiriqnomasining summasi tegishli xarajat guruhlari va xarajatlarni amalga oshirishga ruxsatnomalar doirasida bo'lishi ta'minlanadi. To'lov topshiriqnomasining "To'lovchi" grafasida G'aznachilik bo'limi, "To'lovchi scheti" grafasida G'aznachilik hisobraqami, "To'lov tafsilotlari" grafasida budjet mablag'ini oluvchining G'aznachilikdagi shaxsiy hisobraqami hamda to'lov maqsadi, to'lovni amalga oshirish uchun asos bo'lib hisoblanuvchi yuridik hujjat, budjet tasnifi bo'yicha mos kodlar ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida va uning hududiy bo'linmalarida O'zbekiston Respublikasining "Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi va "Budjet tizimi to'g'risida"gi Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrda 532-son "O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevralda 594-son "Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan harajatlarni to'lash uchun budjetdan mablag' oluvchilarning shaxsiy hisobvaraqlari ochildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentabrda 414-son «Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorga muvofiq, budjet xarajatlarning I va II guruhlari birinchi navbatda mablag' bilan ta'minlanadi, IV guruh bo'yicha mablag'lar belgilangan limitlar doirasida to'lanadi.

To'lov arizasini tayyorlash budjet tashkilotlari vazifasiga kiradi. Budjet tashkiloti schet-fakturani qabul qilgan paytning o'zida ikki nusxada to'lov arizasini tegishli G'aznachilik bo'limlariga qonunchilikda nazarda tutilgan vaqtda taqdim etishi lozim. Arizaga qonunchilikka asosan majburiy hujjatlar, masalan, schet-faktura, bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma va boshqalar ilova qilinadi. Budjet tashkilotlari schet fakturani qabul qilgan sanasini yozib qo'yishi shart.



4-rasm. Budjetning g'azna ijrosi jarayonida nazorat ko'rsatkichlari¹¹

G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish budjet mablag'lari oluvchilarning yuridik majburiyatlari asosida moliyaviy majburiyatlarni bajarilishi deb tushuniladi.

G'aznachilikda to'lovlar uch bosqichda amalga oshiriladi:

⇒ yuridik majburiyatlar: shartnomalar, bitimlar, qarorlar (sud organlari, imtiyozlar), bir taraflama qarorlar (grantlar);

⇒ moliyaviy majburiyatlar: hisob-fakturalar, ish haqi vedomostlari;

¹¹ G.Qosimova. "G'aznachilik". O'quv qo'llanma 2013 yil. Iqtisod-Moliya.

⇒ to'lovni amalga oshirish.

Davlat moliyaviy xavfsizligini ta'minlashdagi budget barqarorligi Davlat budgeti holati bilan izohlanadi. Davlat moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda davlat moliyasini boshqarish sohasidagi islohotlar o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Ayniqsa, G'aznachilik tizimini amaliyotga joriy etilishi shartnomalar bilan budget mablag'larini samarali boshqarish va risklarni kamaytirish yo'nalishlarini belgilab berdi. G'aznachilik operatsiyalaridagi risklar G'aznachilik faoliyatdagi muhim ko'rsatkichlarining ishonchsizligidir.

G'aznachilikda ijroning samaradorligi uchun axborot tizimi asosida budget tasnifidan ham foydalaniladi. Qonun hujjatlariga muvofiq, hukumatning moliyaviy mablag'larini yanada samarali ishlatishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yangi Boshqarmasi hisoblangan G'aznachilikning huquqiy mas'uliyati belgilanadi. Budget tasnifi bo'yicha berilgan xarajatlar rejasi to'g'risidagi axborotlar yil bo'yi xarajatlar tendentsiyasini va xarajatlarni amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan qo'shimcha ehtiyojlarni aniqlashga yordam beradi. G'aznachilikning faoliyat ko'rsatishi naqd pullarni to'g'ri va samarali boshqarish yo'li bilan budgetga ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Davlat budgetining yillik g'azna ijrosida kassali rejalashtirish mexanizmini amaliyotga kiritish talab etiladi. Budgetni yillik rejalashtirish budget ijrosining yillik rejalarini, oylik kassa rejalarini tayyorlash, pul mablag'lari kelib tushishining oylik prognozlarini tuzishni o'z ichiga olib, budget ijrosini rejalashtirish va budget mablag'lari kassa oqimlarini rejalashtirish va xarajatlarni to'lashga bo'linadi. G'aznachilikda kassa rejalarini puxta tayyorlanishi va to'lovlar aniq amalga oshiriladigan bo'lishi kerak.

2.2. G'aznachilik tizimida dastlabki va joriy nazoratni amalga oshirish tartibi

Budget nazorati shakllari quyidagi mezonlar asosida tasniflanadi:

1. O'tkazilish muddatiga qarab dastlabki, joriy va yakuniy budget nazoratlari farqlanadi. Dastlabki budget nazorati turli darajadagi budgetlarni, budget

tashkilotlarining harajatlar smetalarini, dotatsiyalar, subventsiyalar va budjetdan boshqa mablag'lar olingunga qadar hisob-kitoblarni tuzish, ko'rib chikish va tasdiqlash bosqichida, budjet va soliq masalalari bo'yicha qonun hujjatlarini ishlab chikish va qabul qilish bosqichida amalga oshiriladi. U ogoxlantiruvchi hususiyatga ega bo'lib, moliyaviy resurslar noto'g'ri, samarasiz sarflanishining oldini olishga, daromadlarni oshirish imkoniyatlarini aniqlashga va loyihalashtirilayotgan budjet ko'rsatkichlarining hududlar va butun mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dasturlari bilan muvofiqligini ko'rsatishga yordam beradi. Dastlabki nazorat budjet ajratmalari yo'nalishlarini rejalashtirishda, umumiy iqtisodiy barqarorlikka bir vaqtda erishish natijasida davlat budjetiga katta daromadlar keltiruvchi investitsion dasturlarni tanlashda eng tejamli qarorlarni qabul qilishga imkon beradi.

Nazorat sub'ektiga yuridik va maoliyaviy majburiyatlarni amalga oshiruvchi xodimlar va ularning bevosita raxbarlari kiradi.

Nazorat ob'ekti sifatida yuridik va moliyaviy majburiyatlar buyicha operatsiyalarni tushinish mumkin.

Nazorat predmeti sifatida shartnomalar, xarjatlar smetalari, to'lov topshiriqnomalari, baholar monitoringi va boshqalar.

Nazorat tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin rejailik, tizmililik, uzluksizlilik, qonuniylik, ob'ektivlilik, oshkoralik, samaralilik.

Nazoratning uslublariga quyidagilar kiradi: tahlil, sintez, induktsiya, deduktsiya, orgnoleptik, inventarizatsiya, bajarilayotgan ishni nazorat o'lchovi, tanlab ko'zatish, uzluksiz ko'zatish, loyxalar va smeta xujjatlarini ekspertizasi, eksperiment, analitik hisob uslubi, iktisodiy tahlil, statistik hisob, kamerali tekshiruv.

Joriy nazorat - budjet nazorati sub'ektlarining asosiy faoliyat turi. U budjet ijrosi, budjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari ijrosi sharoitida budjet yili davomida budjet-soliq intizomini buzilishini aniqlash, moliyaviy me'yorlarga, budjet va budjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'larini shakllantirish va ishlatish bo'yicha belgilangan ko'rsatkichlarga rioya qilinishini

qayd etish maqsadida amalga oshiriladi. Joriy budget nazorati operativ va budget-buxgalteriya hisobi va xisobotining birlamchi xujjatlariga tayangan holda amalga oshiriladi. Bunda nazorat joriy tahlilsiz amalga oshirilishi mumkin emasligi namoyon bo‘ladi. Joriy tahlil yordamida budget daromadlarining to‘planish darajasi, davlat va xududiy dasturlar o‘z vaktida va maksadli moliyalashtirilishi, budget taqchilligi qajmi va uni qoplash manbalari, amaldagi budget qonunchiligiga baho beriladi, shuningdek budget-soliq mehanizmidan foydalanish orqali jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish va rag‘batlantirish amalga oshiriladi.

Yakuniy nazorat moliya yili yoki hisobot davri tugaganidan so‘ng amalga oshiriladi, unda soliqlar, bojlar va boshqa to‘lovlarni to‘plash bo‘yicha rejalashtirilgan son va sifat ko‘rsatkichlarini (daromadlar va xarajatlarning xar bir turi bo‘yicha) bajarilishi, davlat pul mablag‘larining sarflanishi, budget tashkilotlari smetalarining ijrosi tekshiriladi. Bunda taxliliy ish natijasida buxgalteriyaning xisobot hujjatlari asosida rejadagi ko‘rsatkichlardan og‘ish sabalari aniqlanadi, budgetda nazarda tutilgan mablag‘lar o‘z vaktida va tuliq hajmda tushishi ko‘riladi, amalga oshirilgan xarajatlarning to‘g‘riligi, konuniyligi va maqsadga muvofikdigi, shuningdek daromadlar bazasini oshiruvchi zaxiralardan foydalanish darajasi tekshiriladi.

Yakuniy nazorat dastlabki va joriy nazorat bilan uzviy bogliq bo‘lib, xisobot (budget) davri tugaganidan so‘ng amalga oshirilishi natijasida avvalgi davrlarda (ya’ni dastlabki va joriy nazorat davrlarida) yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi.

2. Sub’ektlardan kelib chiqib budget nazorati xokimiyat vaqillik organlarning nazorati, ijroiya organlarining nazorati, mahalliy o‘zini o‘zi boshkarish organlarining nazoratiga bo‘linadi. Zarurat tug‘ilganda budget nazoratini amalga oshirishga qonun xujjatlariga muvofiq auditorlar jalb etilishi mumkin.

Budget nazoratining asosiy metodlari - hujjatli va kameral tekshiruv, iktisodiy taxlil, taftish, ko‘rik.

Moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini xujjatli tekshirish korxonalar, tashkilotlar va

muassasalarda amalga oshiriladi. Shuni ta'kidlash joizki, tovar-moddiy boyliklari, pul mablag'larini inventarizatsiya qilishda, amalga oshirilgan ishlarning nazorat o'lchovi va bosh tadbirlarni amalga oshirishda moddiy javobgar shaxslar qatnashishi shartdir. Ma'lumotlar manbasi bo'lib birlamchi xujjatlar, buxgalteriya xisobi registrlari, buxgalteriya, statistik va operativ-texnik xisobotlar, xarajatlar smetasi va unga qushimcha hisob-kitoblar, soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar, deklaratsiyalar va boshqa hujjatlar xizmat qiladi. Korxona (tashkilot)dan tashqarida hujjatlarni tekshirish uchun musodara qilish qonun bilan takiklanadi. Shu bilan birga, nazorat organlariga yuridik shaxslardan foyda (daromad) yashirilganligi (kamaytirib ko'rsatilganligi) yoki boshqa soliq solish ob'ektlari yashirilganligi, budjet mablag'lari isrof etilganligi va maksadsiz ishlatilganligidan dalolat beruvchi hujjatlarni, agar ular yo'qotilishi, almashtirib qo'yilishi qalbakilashtirilishi mumkin deb taxmin qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa, olib qo'yish huquqi berilgan.

Kameral tekshiruv nazorat organi joylashgan erda, korxona, tashkilot va muassasa tomonidan taqdim etilgan yuqorida sanab o'tilgan hujjatlar va nazorat sub'ektida tekshiruvchilar haqida mavjud bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Kameral tekshiruvning asosiy vazifalari:

- xisobotlar, budjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari, ularga qushimcha hisob-kitoblar, shuningdek soliq to'lovchilarning soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarini olish, tekshirish va butligini ta'minlash;
- soliq to'lovchilar va budjet mablag'larini taqsimlovchilar budjetga va budjetdan tashqari jamg'armalarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi, budjet tashkilotlarining harajatlar individual va umumiy smetalarini tuzish, qonun hujjatlari bilan belgilangan me'yorlarga rioya qilinishi va boshqa masalalar bo'yicha qaror qabul qilish;
- budjet-soliq intizomini buzganlarga moliyaviy sanksiyalar to'g'ri hisoblanishini nazorat qilish va boshqalar.

Ko'rik nazorat qiluvchining korxona, tashkilot va muassasa moliyaviy-xo'jalik faoliyati ishtirokchilari bilan shaxsan tanishuvini nazarda tutadi.

Bunda birlamchi buxgalteriya hujjatlarini tekshirish shart emas. Ishning dastlabki nazorati o'tkazilib, yoqilg'i va elektroenergiya sarfi xamda yashirin moliyalashtirilgan va soliqqa solingan ob'ektlarni so'rov o'tkazish, joydagi inspeksiya yoki kuzatuv va shunga o'xshash xsullar yordamida amalga oshirish mumkin.

Budjet nazoratini amalga oshirishning muhim metodi - barcha darajadagi budjetlarning daromadlar va xarajatlar qismlari ijrosini, budjet tashkilotlari xarajatlar smetasi ijrosini iqtisodiy tahlil qilish. Uning davlat moliyasi va xo'jalik sub'ektlari moliyasini boshqarishda, shuningdek bozor sharoitida jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishda ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Bunda budjet-soliq tizimining o'zi ham taxlil qilinishi kerak, shuningdek uning jamiyat xayotida turli tomonlariga ta'siri xam taxlil qilinishi lozim.

Ilmiy asoslangan va xar tomonlama o'tkazilgan budjet taxlili uzoq muddatli siyosatni ishlab chiqishga asos bo'ladi va budjetni takror ishlab chiqarish jarayonlarini davlat tomonidan tartibga soluvchi faol vosita sifatida foydalanish imkonini beradi.

Taftish - yakuniy budjet nazoratining etakchi shakli bo'lib, budjet nazoratining chuqur va keng qamrovli metodini namoyon etadi.

Taftish - korxona, tashkilot va muassasalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining, shuningdek moliya organlarining budjetni tuzish va ijro etish bo'yicha ishlarining o'zaro bog'langan tekshiruvlari majmuidir. Taftish xujjatli va faktik nazorat yordamida amalga oshirilib, xo'jalik operatsiyalarini, budjet mablag'lari ajratilishining asoslanganligi, maqsadga muvofik va iktisodiy jixatdan samarali ekanligini aniqlaydi, moliyaviy intizomga rioya qilinishini, davlat mulkining saqlanishini, hisob va hisobot yuritishning ishonchliligini tekshiradi.

Taftish vaqtida amalga oshirilayotgan xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligi, ishonchliligi, maqsadga muvofiqligi, moliyaviy-iqtisodiy samaraliligi, ishlatilayotgan budjet ajratmalarining, moddiy va mexnat resurslarining maqsadliligi va oqilonaligi, budjet daromadlari va xarajatlari bo'yicha

rejalashtirilayotgan ko'rsatkichlarga erishilganligi nazorat qilinadi. Taftish yordamida davlat va xo'jalik organlari moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan to'liq foydalanganlik to'g'risida, taftish qilinayotgan korxona faoliyatining ijobiy va salbiy tomonlari to'g'risida ishonchli ma'lumot oladi, bu esa o'z navbatida operativ va to'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilinishiga olib keladi. Taftishning ahamiyati xo'jalik faoliyatini yuritishning ijobiy tajribalarini umumlashtirish va targ'ib qilishda, qonunbuzarlik va suviste'molliklarning oldini olishda, budget-soliq intizomini tartibga solishda, moliyaviy xuquqning yangilash hissi paydo bo'lishiga ko'maklashishda ham namoyon bo'ladi.

G'aznachilik organlari tomonidan davlat budjeti ijrosi jarayonida joriy nazorat budjetdan mablag' oluvchilarning moliyaviy majburiyatlarini ro'yxatga olishda va to'lovlarni amalga oshirish jarayonida amalga oshiriladi. G'aznachilik organlarida moliyaviy majburiyatlarni hisobga olishni asosiy maqsadi qabul qilingan yuridik majburiyatlar, tasdiqlangan budget rejasi me'yorida harajatlarni amalga oshirishni ta'minlash, hamda budget tashkilotlari kreditorlik qarzlari joriy nazorat qilishdan iborat.

Budget tashkiloti tasarrufida bo'luvchi pul mablag'lari miqdori moliya organi tomonidan tasdiqlangan smeta bilan cheklangan. Yuridik majburiyatlari ham smetada ko'rsatilgan xarajat moddalari doirasidan chetga chiqmasligi nazorat qilinadi. Budget tashkilotlari moliyaviy majburiyatlari limiti ularning tasarrufida bo'lgan pul mablag'lari bilan belgilanadi. Budget tashkiloti yil davomida ko'plab kontragentlar bilan shartnomalar tuzadi. Ularni bajarilishini ta'minlash uchun pul to'lovlarini amalga oshiradi. Moliyaviy majburiyatlarini limitini baholashda 1 va 2-modda xarajatlari o'z vaqtida moliyalashtirilishiga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar o'z vaqtida, kechiktirmasdan berilishi, ish haqi fondidan ajratmalar to'lanishi shart. Boshqa xarajatlarni amalga oshirilishida ham budget tashkiloti tejamlilik, oqilonalik tamoyillariga amal qilishi talab etiladi. Xarajatlar tegishli ruxsat asosida amalga oshirilishi hamda ularning hajmi yillik ajratmalar va xarajatlarni amalga oshirish ruxsati miqdoridan ortib ketmasligi shart.

Budjetdan mablag‘ oluvchilarning ikkinchi tomon oldidagi moliyaviy majburiyatlari ularga tovar (ish, xizmat)lar etkazib berilganligini tasdiqlovchi hujjatlar, shu jumladan ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlarni hisoblash vedomostlari asosida qabul qilinadi.

Moliyaviy majburiyatlar, ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar, shuningdek sud qarorlari bo‘yicha to‘lovlar, yig‘imlar, badallar, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan tashqari, oldin tuzilgan shartnomalar va yuridik majburiyatlar qabul qilinganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar doirasida qabul qilinadi.

I va II guruh xarajatlari bo‘yicha moliyaviy majburiyatlar ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar to‘lovi uchun naqd pul mablag‘larini olishga so‘rovnoma, shuningdek ushbu guruhlar xarajatlari bo‘yicha to‘lov topshiriqnomalari asosida ro‘yxatga olinadi.

G‘aznachilik bo‘linmalari g‘azna hisobvaraqlaridan to‘lov topshiriqnomalar asosida tashkilot va muassasalarni saqlash, markazlashtirilgan tadbirlarni o‘tkazish, kapital qo‘yilmalar va boshqa maqsadlar uchun to‘lovlarning tasdiqlangan xarajatlar smetasi va kapital qo‘yilmalar limitlari doirasida amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentabrdagi 414-sonli “Budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, budjetdan mablag‘ oluvchilarni Davlat budjetidan xarajatlarning to‘rt guruhi bo‘yicha moliyalashtirish tartibi belgilangan:

I. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar (bolali oilalarga nafaqalar va kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam, stipendiyalar va boshqalar);

II. Ish haqiga qo‘shimchalar;

III. Kapital qo‘yilmalar (Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan manzilli ro‘yxatlarga muvofiq);

IV. Boshqa xarajatlar (oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va boshqa xarajatlar).

Budjetdan mablag‘ oluvchilarning I va II guruh bo‘yicha xarajatlar to‘lovi birinchi navbatda amalga oshiriladi. Bunda, I guruh xarajatlari II guruh xarajatlari to‘lovisiz amalga oshirish taqiqlanadi.

Tegishli budjet bo'yicha I va II guruh xarajatlari to'lovi uchun G'azna hisobvaraqlarida zarur mablag'larni qoplaydigan qoldiqlar mavjud bo'lganda, I va II guruh xarajatlarini to'liq amalga oshirgan tashkilotlar bo'yicha IV guruh xarajatlarini amalga oshirishga ruxsat etiladi.

IV guruh "Boshqa xarajatlar" bo'yicha mablag'larning sarflanishi o'rnatilgan limitlar doirasida quyidagi navbatga rioya qilgan holda amalga oshiriladi:

- oziq-ovqat;
- dori-darmonlar;
- kommunal xizmatlar;
- boshqa xarajatlar.

G'aznachilik organlarida budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan G'aznachilikka taqdim etilgan xisobvaraq-fakturalar ustidan quyidagi joriy nazorat olib boriladi:

- xisobvarak-faktura tovarlarning yuklab jo'natilishi, ishlarning bajarilishi va xizmatlar ko'rsatilishi sanasidan kechiktirmasdan yozilganligi;
- xisobvaraq-fakturaning tartib raqami va sanasining mavjudligi;
- xisobvaraq-faktura ilova kilinadigan, yuklab jo'natiladigan tovarlar xujjatlari (shartnomalar) rakami va sanasi to'g'ri ko'rsatilganligi;
- solik to'lovchi va xaridorning nomi, manzili va STIRi, xalk xo'jaligi tarmoklari tasnifnomasi (XXTUT) bo'yicha tarmok kodining ko'rsatilganligi;
- mazkur tovar bo'yicha qabul qilingan o'lchov birligi (dona, kilogramm, metr va shu kabilar) va ishlar, xizmatlar bo'yicha o'lchov birligining ko'rsatilganligi;
- xisobvaraq bo'yicha yuklab jo'natiladigan tovarning mikdori (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar xajmi) ning aniq ko'rsatilganligi;
- tovarlar jami sonining QQSsiz qiymatining to'g'ri ko'rsatilganligi;
- qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi (20 yoki 0 foiz)ning ko'rsatilganligi;
- tovar (ish, xizmat) lar bo'yicha tegishli stavkalarga ko'ra xisoblangan QQS summasining to'g'ri ko'rsatilganligi;

- xisobvara-q-fakturada tovar (ish, xizmat) lar jami summasi (QQS bilan birga) ning to'g'riligi;
- hisobvara-q-fakturada raxbar va bosh buxgalter imzolarining va korxona muxrining mavjudligi tekshiriladi.

Shu bilan birga budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan G'aznachilikka taqdim etilgan to'lov topshiriqnomalarini to'lovga qabul qilish jarayonida joriy nazorat quyidagicha olib boriladi:

- to'lov topshiriqnomalarni to'g'ri rasmiylashtirilishini nazorat qilish;
- agar to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan summa moliya organida ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomaga ko'ra to'lanadigan pul mablag'lari summasiga muvofiqligini nazorat qilish;
- etkazib beruvchining to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan nomi va rekvizitlari etkazib beruvchining shartnomada ko'rsatilgan nomi va rekvizitlariga muvofiqligini nazorat qilish;
- to'lov topshiriqnomasida budjet tasnifining tegishli qodlari to'g'ri ko'rsatilganligini nazorat qilish.

Buxoro viloyati Kogon shahar G'aznachiligi tomonidan moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirish jarayonida joriy nazorat natijasida natijasida G'aznachilikka taqdim etilgan va to'lov uchun qabul qilinmasdan sabablarga ko'ra qaytarilgan to'lov topshiriqnomalar bo'yicha 1-jadval ma'lumotlari tahlilini ko'rib chiqamiz.

2.1-jadval. Shartnomalarni ro'yxatga olish holati¹²

№	Ko'rsatkichlar	Soni	Summasi
1	Respublika budjetidan mablag' oluvchilar	498	2003875,8
2	Viloyat mahalliy budjetlaridan mablag' oluvchilar	2085	6931612,6
3	Tuman mahalliy budjetlaridan mablag' oluvchilar	32563	49383136,2
	Jami	35146	58318624,6

¹² Buxoro viloyati Kogon shahar G'aznachiligi ma'lumotlari asosida, talaba tomonidan tayyorlandi.

Ushbu 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Buxoro viloyati Kogon shahar G'aznachiligiga tuman, viloyat mahalliy budjetidan va respublika budjetidan mablag' oluvchilar tomonidan 2012 yilda jami 35146 ta, umumiy summasi 58318624,6 ming so'mlik to'lov topshiriqnomalari taqdim etilgan bo'lib, shundan, tuman mahalliy budjetidan mablag' oluvchilar tomonidan 32563 ta (49383136,2 ming so'm), viloyat mahalliy budjetidan mablag' oluvchilar tomonidan 2085 ta (6931612,6 ming so'm) va respublika budjetidan mablag' oluvchilar tomonidan esa 498 ta (2003875,8 ming so'mlik) ni tashkil etgan.

2.2-jadval. To'lov topshiriqnomalarini ruyhatga olish 2012 yil¹³

№	Ko'rsatkichlar	Soni	Summasi (ming sum)
1	Taqdim etilgan to'lov topshiriqnomalari	35004	56907218,2
2	To'lab berilmagan to'lov topshiriqnomalari (qaytarilgan shartnomalar)	142	1411406,4
	Jami	35146	58318624,6

Budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan jami taqdim etilgan to'lov topshiriqnomalaridan 35004 tasi umumiy summasi 56907218,2 ming so'm bo'lgan to'lov topshiriqnomalarining to'lovi amalga oshirilgan. Qolgan 142 ta 1411406,4 ming so'm bo'lgan to'lov topshiriqnomalari to'lab berilmasdan, shartnoma orqali amalga oshiriladigan to'lovlarni shartnomasiz taqdim qilinganligi uchun, hisob faktura summasidan ortiqcha taqdim qilinganligi uchun, smetadan ortiqcha taqdim qilingan (shartnomasiz to'lovlar) uchun va boshqa sabablarga ko'ra asosli qaytarilgan.

¹³ Buxoro viloyati Kogon shahar G'aznachiligi ma'lumotlari asosida, talaba tomonidan tayyorlandi.

2.3-jadval. Moliyaviy majburiyatlarni ruyxatga olish 2012 yil

№	Ko'rsatkichlar	Shartnoma soni	Shartnoma summasi (ming sum)
1.	Shartnoma orqali amalga oshiriladigan to'lovlarni shartnomasiz taqdim qilingan	8	27245,7
2.	Xisob faktura summasidan ortiqcha taqdim qilingan	2	6599,8
3.	Smetadan ortiqcha taqdim qilingan	45	684386,9
4.	Boshqalar	87	693174,0
	Jami	142	1411406,4

Jumladan, shartnoma orqali amalga oshiriladigan to'lovlarni shartnomasiz taqdim qilinganligi 8 ta (27245,7 ming so'm), hisob faktura summasidan ortiqcha taqdim qilinganligi 2 ta (6599,8 ming so'm, oshgan summasi 1509,2 ming so'm), smetadan ortiqcha taqdim qilingan (shartnomasiz to'lovlar) 45 tani (684386,9 ming so'm, oshgan summasi 94381,1 ming so'm) va boshqalar 87 tani (693174,0 ming so'm) tashkil etgan. Jami to'lovga taqdim etilgan to'lov topshiriqnomalarida qaytarilgan (to'lab berilmagan) to'lov topshiriqnomalar sonining ulushi 0,4 foizni tashkil etgan, summasining ulushi esa, 2,4 foizni tashkil etgan.

2.4-jadval. 2013 yil 1 may holatiga Buxoro viloyati Kogon shahar

G'aznachiligida shartnomalarni ruyxatga olish¹⁴

№	Ko'rsatkichlar	Soni	Summasi (ming sum)
1	Taqdim etilgan to'lov topshiriqnomalari	8875	16254243,1
2	Qaytarilgan to'lov topshiriqnomalari	54	446682,5
3	Tulab berilgan to'lov topshiriqnomalari (farqi)	8821	15807560,6

¹⁴ Buxoro viloyati Kogon shahar G'aznachiligi ma'lumotlari asosida, talaba tomonidan tayyorlandi.

2013 yil 1 may holati bo'yicha 4-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, tuman, viloyat mahalliy budjetidan va respublika budjetidan mablag' oluvchilar tomonidan jami 8875 ta, umumiy summasi 16254243,1ming so'mlik to'lov topshiriqnomalari taqdim etilgan bo'lib, shundan jami 54 ta 446682,5ming so'm bo'lgan to'lov topshiriqnomalari to'lab berilmasdan, shartnoma orqali amalga oshiriladigan to'lovlarni shartnomasiz taqdim qilinganligi uchun, hisob faktura summasidan ortiqcha taqdim qilinganligi uchun, smetadan ortiqcha taqdim qilingan (shartnomasiz to'lovlar) uchun va boshqa sabablarga ko'ra asosli qaytarilgan.

2.5-jadval. Shartnomalarni ruyxatga olish 2013 yil¹⁵

№	Ko'rsatkichlar	Soni	Summasi (ming sum)
1	Shartnoma orqali amalga oshiriladigan to'lovlarni shartnomasiz taqdim qilganligi	2	2630,0
2	Xisob faktura summasidan ortiqcha taqdim qilingan	10	28129.9
3	Smetadan ortiqcha taqdim qilingan (shartnomasiz to'lovlar)	18	187118,1
4	Boshqalar	24	228804,5
	Jami	54	446682,5

Jumladan, shartnoma orqali amalga oshiriladigan to'lovlarni shartnomasiz taqdim qilinganligi 2 ta (2630,0 ming so'm), hisob faktura summasidan ortiqcha taqdim qilinganligi 10 ta (28129,9 ming so'm, oshgan summasi 22993,4 ming so'm), smetadan ortiqcha taqdim qilingan (shartnomasiz to'lovlar) 18 tani (187118,1 ming so'm, oshgan summasi 26722,6 ming so'm) va boshqalar 24 tani (228804,5ming so'm) tashkil etgan. Jami to'lovga taqdim etilgan to'lov topshiriqnomalarida qaytarilgan (to'lab berilmagan) to'lov topshiriqnomalar sonining ulushi 0,6 foizni tashkil etgan, summasining ulushi esa, 2,7 foizni tashkil

¹⁵ Buxoro viloyati Kogon shahar G'aznachiligi ma'lumotlari asosida, talaba tomonidan tayyorlandi.

etgan.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tumanda budjetning xarajatlar ijrosi jarayonida G'aznachilik bo'limi tomonidan olib borilgan dastlabki va joriy nazorat budjet mablag'larining maqsadsiz yo'nalishi oldi oliishini ta'minlagan.

G'aznachilikning bosh vazifasi davlat budjetini to'g'ri, maqsadga muvofiq ijro etilishini ta'minlashdir. Demak, G'aznachilik tomonidan ijro etiladigan asosiy xujjat –davlat budjeti, har bir vazirlik va mintaqa budjeti zarur bo'lib, ular budjet hisobini yuritishning ilg'or standartlariga mos ravishda va budjet tavsifiga asoslanib mukammal ishlab chiqilishi kerak.

G'aznachilik amaldagi xarajatlar bo'yicha dastlabki va joriy nazoratni o'rnatishi lozim. Bitimga erishilgandan keyin esa nazoratni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish boshqarmasi va boshqa organlar vazifasiga kiritiladi. G'aznachilikning nazorat vazifasi esa aynan dastlabki nazoratdan iborat bo'ladi.

Tuzilgan shartnomalar taqdim etilganda va ularning tasdiqlangan smetalariga mosligi aniqlangandan so'ng G'aznachilik organlari tomonidan ushbu hujjatlarning budjetga qat'iy mosligi sinchiklab tekshiriladi.

Joriy nazoratni olib borish uchun ishning haqiqatda bajarilganligi va unga haq to'lash budjetda ko'zda tutilganligi haqida hujjatlar taqdim etilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi hududida davlat budjeti ijrosini G'aznachilik tizimini amaliyotga joriy etish masalalarini qarab chiqadigan bo'lsak, ma'lum natijalarga erishilganligini ko'rishimiz mumkin. Bular jumlasiga: xo'jalik shartnomalarini ro'yxatga olish, hisob-fakturalar, budjet tashkilotlarining to'lov topshiriqlari hisobi kabilarni kiritish mumkin.

Ushbu qadam budjet mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanish bilan bog'liq muammolarning bir qismi joriy etilganligidan dalolat beradi. G'aznachilikda shartnomalarni ro'yxatga olish amalga oshirilishi uchun ularning summasi tegishli xarajatlar smeta moddasidan oshib ketmaydi va maqsadli foydalanishga mos kelsa, ro'yxatga olinadi. Ro'yxatga

olingandan keyin ushbu shartnoma bo'yicha hisob-faktura va to'lov topshiriqnomalari ham amalga oshiriladi. Budget tashkilotlari bilan tovar (ish va xizmatlar) bo'yicha mol etkazib beruvchilarni shartnomalarining G'aznachilikda ro'yxatga olinishi Davlat ushbu budget tashkiloti bo'yicha to'lovga qobiliyatli ekanligini anglatadi va shartnoma shartlari bajarilganda mol etkazib beruvchi uchun to'lov kafolatlanganligini bildiradi .

Eng muhimi, G'aznachilikda dastlabki va joriy nazorat budget tashkilotlarining bank hisobraqamlari yopilib, ular hududlar bo'yicha G'aznachilik schyotlarida jamlanadi (respublika budjeti uchun respublika G'aznachilik schyotlari). Bu tadbir natijasida budget mablag'larini turli bank schyotlarida bo'lishining oldi olinadi va budget daromadlari va xarajatlarini kassa ijrosidagi bo'shliqni tugatish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, budget tashkilotlariga G'aznachilikda ochilgan shahsiy hisobvarag'lar orqali budget mablag'lari oqimining dastlabki va joriy nazorati ta'minlanadi.

III-BOB. G‘AZNACHILIK TIZIMIDA BUDJET NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING TAKKOMILLASHTIRISH YULLARI

Birinchi navbatda, dunyo bozorida xomashyo va tayyor mahsulotga ehtiyojning tobora pasayib borishini hisobga oladigan bo‘lsak, bunday holat mamlakatimizning eksport salohiyati va valyuta tushumiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi, albatta... Ta’kidlash joizki, o‘tgan yili mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’ati, kutilganidek, amalda 8,0 foizni tashkil etdi, 2000-2013-yillar mobaynida yalpi ichki mahsulot hajmi 2,1 barobar oshdi. Mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha O‘zbekiston dunyoning iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan mamlakatlari qatoridan joy oldi”.¹⁶

Davlat budjeti xarajatlarining yagona g‘azna xisob rakamidan amalga oshirishi g‘azna tizimining to‘liq joriy etilishini taqazo etadi. G‘azanachilik tizimini to‘liq joriy etishdan oldin respublika budjeti va davlatning budjetdan tashqari fondlari o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni tartibga solishi lozim, chunki budjetdan tashqari mablag‘larni ijro etish xam G‘aznachilik organlariga yuklatilgan. Bundan tashqari davlatning tashqi va ichki qarzlarini boshqarish budjet ijrosining G‘aznachilik tizimini joriy etish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribalari shuni kursatadiki davlatning ichki va tashqi qarzlarini buyicha to‘lovlarni amalga oshirish G‘aznachilik idorasi zimmasiga yuklatilgan. Bu esa G‘aznachilik organlari faoliyatining keng qamrovli ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, G‘aznachilik organlari davlat budjeti defitsitini qoplash maqsadida xukumat qimmatli qrgozlarini emissya qilish va muddati buyicha xam taklif beriladi.

Yurtboshimiz ilgari surgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi»da amaldagi

¹⁶ 2014 yil yuqori o‘sish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi

qonunlarning aksariyati mamlakatda bozor munosabatlarini rivojlantirishning yangi sharoitlarini nazarda tutgan holda, jiddiy qayta ko'rib chiqishga muhtoj ekani alohida ta'kidlandi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy va ma'naviy asosini davlat budjeti tashkil etadi. Unga ko'ra nafaqat davlatning iqtisodiy qudratiga, balki ijtimoiy rivojlanishiga ketadigan sarf-xarajatlarga ham baho berish mumkin. Budget iqtisodiy siyosatning muhim vositasi hamda har qanday davlat moliya tizimining markaziy bo'g'inidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjeti nazoratini takomillashtirish muhim ahamiyatga molik masaladir. Rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasini o'z domiga tortgan moliyaviy iqtisodiy tanglikni keltirib chiqargan sabablardan biri davlat mablag'ini haddan tashqari ko'p, nazoratsiz sarflash ekani ayon bo'lgan bir sharoitda bu muammo g'oyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda ishlab chiqilgan Inqirozga qarshi choralar dasturida qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etib, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi.

Iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini engillashtirish maqsadida budget mablag'laridan foydalanishni nazorat qilishning qat'iy choralari qo'llanildi. Shuningdek, moliyaviy munosabatlarni tartibga solishda — soliqlar, tushumlar, bojlarning to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazorat tizimini joriy etishda davlatning rolini oshirishga qaratilgan choralar ko'rilyotgani o'zini to'liq oqlamoqda. Ta'kidlash joizki, inqirozga qarshi choralar dasturida mamlakatni iqtisodiy rivojlantirishga ham jiddiy e'tibor qaratilgan bo'lib, bunda korxonalarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish ko'zda tutilgan.

Muxtasar qilib aytganda, mamlakatimizda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan dastur asosida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini engillashtirish bo'yicha qo'llangan choralar o'z samarasini berdi.

Ma'lumki, mamlakatimizda budget nazorati «Budget tizimi haqida»gi, «Davlat

budjetining G‘aznachilik ijrosi haqida»gi qonunlar asosida amalga oshiriladi. «Budjet tizimi haqida»gi Qonun budjet sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy negizidir. U yurtimizda budjet qonunchiligining umumiy huquqiy asoslarini, Davlat budjetining shakllanish va tuzilish printsiplari, uni ko‘rib chiqish, qabul qilish va bajarish tartibini belgilaydi. Shuningdek, unda Davlat budjeti daromadlarining shakllanishi hamda sarflanishi, davlat budjeti mablag‘lari operatsiyalarini amalga oshirishda hisobga olish va hisobot, shuningdek, nazorat printsiplari mustahkamlab qo‘yilgan.

Davlat bozor munosabatlarining sub’ektlaridan biri sifatida o‘z moliyaviy faoliyatini amalga oshiradi. Shu bois budjet munosabatlari yil sayin rivojlanadi va uni tartibga soluvchi ko‘plab yangi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar vujudga keladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda budjet munosabatlarini, shu jumladan, budjet nazoratini tartibga soluvchi saksondan ziyod qonun aktlari mavjud. Keng ko‘lamli huquqiy, tashkiliy va metodik baza esa budjet nazorati amalga oshiradigan vazifalarning tez va samarali olib borilishiga xalal beradi.

Budjet nazorati bo‘yicha keng ko‘lamli qonunlar borligiga qaramay, kodekslash amalga oshirilmagan. Natijada, qoidalarni amaliyotda qo‘llash ancha mushkullashib, budjet nazorati hujjatlarini sistemalashtirish va kodekslash maqsadida Budjet kodeksini qabul qilindi. Bu bilan, avvalo, budjet tizimining asosiy printsiplari, ushbu jarayon ishtirokchilarining huquqiy maqomi mustahkamlangan bo‘lar edi. Qolaversa, Budjet kodeksi O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarida davlat va mahalliy budjetlar bajarilishini tartibga soluvchi muhim me‘yoriy hujjat vazifasini o‘taydi. So‘nggi yillarda moliyaviy-huquqiy javobgarlik instituti fani rivojlangan bo‘lsa-da, budjet-huquqiy javobgarlik tushunchasini, uning yuridik javobgarlik tizimidagi o‘rnini belgilash, budjet-huquqiy javobgarlik bilan moliyaviy va soliq javobgarligi nisbatini aniqlash borasida yagona yondashuv mavjud emas.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, budjet-huquqiy javobgarlik tushunchasi quyidagi belgilarga ega: budjet sohasidagi huquq buzilishlarni ta’qib qiladi; huquqbuzarlarga nisbatan budjet-huquqiy normalar bo‘yicha jazo choralarini ko‘-

radi. Bu chora mulkiy tarzdagi budjet-huquqiy jazo xususiyatidan kelib chiqib, huquqbuzarlarning iqtisodiy manfaatlariga ta'sir ko'rsatadi. Davlat budjet faoliyati budjet huquqbuzari tomonidan etkazilgan zararni qoplatishga, huquqbuzarni budjet-huquqiy tartibot sohasiga xos shaklda, ya'ni pul undirish tarzda jazolashga harakat qiladi.

Faznachilik quydagi keng qamrovli va samarali budjet nazorati xamda tekshiruv tizimini taminlaydi:

- Xujjatlar tupamlarini tayoplash bosqichidagi nazoratni;
- Dastlabki mablag'lar ajratilishi bosqichidagi nazoratni;
- G'aznachilik muassasida ochilgan shaxsiy xisob varaqlar orqali budjetdan moliyalash texnologiyasiga kiritilgan joriy nazoratni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarga asoslanib, budjet nazoratini tartibga solish sohasidagi qonunni «budjetlarni tuzish va ko'rib chiqishning belgilangan tartibini bajarmaslik yoki tegishliche bajarmaslik, budjetlarni tasdiqlash, O'zbekiston Respublikasining barcha darajalardagi budjet tizimidagi budjetlarni bajarish va bajarilishini nazorat qilish» matni bilan to'ldirish maqsadga muvofiq.

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirishning yana bir yo'nalishi budjet nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlarining maqomi, huquqi, vazifasi va vakolatlarini qonun darajasida mustahkamlashdan iborat. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi – budjet nazoratini amalga oshirishga ixtisoslashgan organ. Biroq palataning erkin ishlashini ta'minlash uchun uning vakolati, huquqi va vazifasini qonun darajasida mustahkamlab qo'yish, ya'ni «O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi haqida»gi qonunni qabul qilish lozim.

G'aznachilik budjet mablag'larining maqsadli sarflanishini nazorat qilish, ortiqcha sarfga yo'l qo'ymaslik bo'yicha muhim vazifani bajaradi. Bugungi kunda Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlangan G'aznachilik haqidagi nizom mavjud bo'lsada tegishli o'zgartishlar kiritish lozim. Moliya vazirligining bosh nazorat-taftish boshqarmasi vazifasiga ko'ra G'aznachilik bilan mantiqan bog'liq. Ana shu organlarning vazifa hamda vakolatlarini qonun darajasida aniq belgilash

zarur.

Budjet nazoratining keyingi rivojlanishi qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bo'yicha xalqaro shartnomalarni, xususiylashtirish haqidagi qonun normalari qo'llanilishini, fond bozorini budjet bilan moliyalashtirishni samarali nazorat qilish bilan bevosita bog'liq. Shuningdek, turli darajadagi jismoniy va yuridik shaxslar, xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlar hukumatlarining budjetga mablag' o'tkazishi umumiy tartiblarini qonuniy tarzda yo'lga qo'yish lozim.

Xullas, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish ob'ektiv va budjet munosabatlarini yanada rivojlantirish uchun zarur. Jarayonni isloh qilish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlatning barcha darajadagi budjet tizimida budjetni rejalashtirish uchun huquqiy bazani takomillashtirish zaruriyati tug'ilmoqda. Buning uchun budjet mablag'laridan foydalanish samarasining mezonlarini ishlab chiqish hamda ularni qonunda mustahkamlash zarur. Natijada budjet nazoratini amalga oshirish bo'yicha zimmasiga muayyan vakolatlar yuklangan davlat organlarining vazifalari soddalashadi.

Xulosa

So‘nggi yillarda budget tizimida davlat sektori halkaro standartlari darajasida davlat budjeti ijrosini amalga oshirish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan dastlabki yillarda O‘zbekiston Respublikasining "Budget tizimi to‘g‘risida"gi hamda "Davlat budjetinshi ijrosi to‘g‘risida"gi qonunlari qabul qilindi va bosqichma-bosqich budget ijrosining G‘aznachilik tizimi joriy qilindi. Ushbu jarayonda islohotlarni amalga oshirish bilan bog‘liq me‘yoriy hujjatlar (Prezident farmonlari, qarorlari va hukumat qarorlari, nizomlar, yo‘riqnomalar va qoidalar) ketma-ketlikda tasdiqlanadi va amaliyotga joriy qilinadi. Davlat sektori halkaro standartlari talablari asosida davlat budjeti ijrosini amalga oshirishning keyingi bosqichi ya‘ni, budget ijrosiga oid barcha me‘yoriy hujjatlarni o‘zida jamlagan yagona "Budget kodeksi" shakllantirildi va amaliyotga joriy qilindi.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizning o‘ziga xos jihatlariga ega budget tizimi shakllantirildi va islohotlarning ijobiy natijasi o‘laroq Prezidentimiz I.A. Karimov o‘z ma‘ruzalarida ta’kidlaganlaridek. “2013 yil yakunlari bo‘yicha budget taqchilligi yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatan 0,1 foizni tashkil qildi”¹⁷.

Budget tizimida islohotlarni amalga oshirishda iqtisodiyotni erkinlashtirish va bozor munosabatlari talablari asosida yuz bergan va berayotgan tub o‘zgarishlar, ularni miqdor jihatdan ifodalash va sifat jihatdan tavsiflash, nazorat va tahlil qilish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur axborotlar olishda asosan hisob va nazorat tizimiga murojat qilinadi. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash lozimki, davlat budjetidan moliyalashtiriladigan budget tashkilotlarining hisob yuritish tizimi, moliyaviy xisobotlarni tayyorlash tartibi hamda nazorat tizimini bozor munosabatlari talablari asosida rivojlantirish va takomillashtirib borish davlatimiz budget tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadidir.

"Budget kodeksi" qabul qilinib amaliyotga joriy qilinishi bilan yudjet ijrosini amalga oshirishda axborotlarning ishonchliligini taminlash uchun va hisobot tizimida davlat budjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari va budjetdan tashqari

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi Qarori.

jamg'armalar budjeti va budjet tashkilotlari smstalari ijrosini oshirishda yagona hisob uslubiyoti asosida hisob ishlarini tashkil etishga ehtiyoj sezilmoqda. Yagona hisob uslubiyoti asosida hisob ishlarini tashkil qilish orqali davlat budjeti ijrosn yuzasidan axborotlarning ishonchliligni, hisob ishlarini osonlashtirilishini, taqqoslanuvchanligi hamda tezkorligini ta'minlash mumkin.

Davlat budjetini tuzish, mablag'larni taqsimlash va budjet ijrosini amalga oshirishda budjet nazoratining o'rni muhim hisoblanib bu jarayonda Hisob palatasi eng yukori turuvchi nazorat organi snfatida alohida ahamiyat kasb etadi. Buni O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2013 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan ko'rishimnz mumkin. Xisob palatasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar natijasida 2013 yilda 79 mlrd. so'mlik Davlat yoki xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy manfaatlariga etkazilgan zararining undirilishiga erishildi. Davlat budjeti ijrosi nazoratini amalga oshirishda Hisob palatasi, Moliya vazirligi Nazorat taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari bilan bir qatorda budjet tashkilotlari ichki audit xizmatidan foydalanishga zarurat tug'iladi.

- Budjet tashkilotlari ichki audit xizmati tashkilotlar budjet va budjetdan tashqari mablag'lari buyicha smetalar ijrosini amalga oshirishda quyi nazorat bosqichi hisoblanib aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf qilish, shu bilan birga tavsiya xarakterga ega bo'lishi bilan muhim hisoblanadi;
- "Budjet kodeksi" asosida hisob ob'ektlari bo'yicha davlat sektori buxgalteriya hisobi standartlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish;
- Budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishda budjet tashkilotlarining o'ziga hos jihatlarini inobatga olgan holda ichki auditam tashkil qilishning me'yoriy asoslarini shakllantirish;
- G'azna ijrosini amalga oshirishda budjet nazoratiga qat'iy rioya qilishni ta'minlash, shuningdek nazorat tadbirlarini yanada kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi me'yoriy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 2008. -40b. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. 2007 yil. 25 dekabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
3. O'zbekiston Respublikasining Budget Kodeksi. 2013 yil. 27 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi «Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 594-son Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi 1887-son Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi 2099-son Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrda 414-son «Budget tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining “Davlat budjetining g'azna ijrosi Qoidalarini tasdiqlash haqida»gi 2007-son buyrug'i.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi to'g'risida Nizomini tasdiqlash haqida”gi 2007 yil 20 martda 53-son Qarori.

10. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2007 yil 24 dekabrda
“Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar G‘aznachilik
boshqarmalari va tuman (shahar) G‘aznachilik bo‘linmalarida “G‘aznachilik
operatsiyalarini nazorat qilish guruhi/sektori/mutaxassisliklarini kadrlar bilan
to‘ldirish hamda ichki nazoratni mustahkamlash” to‘g‘risidagi buyrug‘i.
11. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi boshlig‘i
tomonidan 2008 yil 11 fevralda tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi
Moliya vazirligi G‘aznachiligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar
va Toshkent shahri bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmalarida G‘aznachilik
operatsiyalarini nazorat qilish Tartibi”.
12. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz
farovonligini yanada yuksaltirishdir. -T.: “O‘zbekiston”. 2010. -80 b.
13. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada
chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston
Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma
majlisidagi ma’ruzasi. // Norma maslahatchi, 2010 yil. 16 noyabr.
14. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini
yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.:
“O‘zbekiston”. 2011. - 48 b.
15. Karimov I. A. “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga
ko‘taradigan yil bo‘ladi. T.: “O‘zbekiston”. 2012. -36 b.
16. Karimov I.A. “Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta’minlash,
xayotimizning yanada erkin va obod bo‘lishiga erishish – bizning bosh
maqsadimizdir.\\ Xalq so‘zi. 2012 yil. 8 dekabr.
17. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz-keng ko‘lamli islohotlar va
modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. O‘zbekiston
Respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy
rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy

dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. \ Xalq so‘zi. 2013 yil. 19 yanvar.

18. Karimov I. “2014 yil yuqori o‘sish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. \ Xalq so‘zi. 2014 yil. 18 yanvar.

II. Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar.

19. Акперов И. Казначейская система исполнения бюджета в Российской Федерации. Учебное пособие. – М.: “КНОРУС”. 2010. - 640 с.
20. Ali Hashim Bair Allan. Treasury reference model. World Bank & IMF. March. 2010. 347 p.
21. Williams M. Government: Cash Management Its Interaction with Other Financial Policies. International Monetary Fund Fiscal Affairs Department Technical Guidance Note. 2010. -201 p.
22. Жданчиков П. А. Казначейство. Автоматизированное бизнес-технологии управления финансовыми потоками. Учебное пособие. – М.: «Висшей школы экономики». 2010. - 363 с
23. Кадомцева С.В. Государственные финансы. Учебное пособие.- М.: «ИНФРА -М». 2010. -352 с.
24. Malikov T., Jalilov P., Budjet-soliq siyosati. Monografiya. T.: Akademnashr. 2011. -472 b.
25. Malikov T., Vahobov D.R., Moliya: chizmalarda. O‘quv qo‘llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2010. - 660 b.
26. Mexmonov. S.U. Budjet xisobi. O‘kuv ko‘llanma. - T.: “Fan va texnologiya”. 2012. - 352 s.
27. Srojiddinova Z.X. O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi: II. Darslik. –T.: «info SOMUZ» nashriyoti. 2010. - 500 b.

28. Нешчитой А.С. Бюджетная система Российской Федерации. Учебник. М.: Издателско-торговая корпорация "Дашков и К". 2012. - 336 с
29. Поляк Г.Б. Бюджетная система России. Учебник.- Москва: ЮНИТИ-ДАНА. 2011. 703 с.
30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma’ruzalarini o‘rganish bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua. – T.: “Iqtisodiyot”. 2010. – 340 b.
31. Eshnazarov T. G‘aznachilik tizimi munosabatlari. T.: Monografiya. Fan. 2009. -303 bet.
32. Eshnazarov T.Sh. O‘zbekiston Respublikasida G‘aznachilik tizimi asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2012. -304 b.
33. Haydarov M., Suvonqulov A., Sugirbaev B., Nurmatov B. Davlat budjeti ijrosining G‘aznachilik tizimi”. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2010. -235 b.
34. Qo‘chqorov T., Xaydarov M. “Davlat budjeti g‘azna ijrosining axborot tizimi”. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2010. -278b.
35. Qosimova G. A. G‘aznachilik faoliyati mexanizmni tashkil qilish. O‘quv-uslubiy majmua. – T.: “Moliya”. 2010. -256 b
36. Qosimova G.A., Shaakramov K. Mahalliy budjetlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Moliya”. 2012. 260 b.
37. Qosimova G.A. G‘aznachilik . O‘quv qo‘llanma. – T.: “Moliya”. 2013. -487 b.
38. Asqarov N. Sohalarni rivojlantirishda maqsadli boshqarishning metodologik asoslari.\\ Iqtisod va moliya. – Toshkent. 2013. №4. – B.123-127.
39. Бакайбаева А. Использование в Республике Узбекистан казначейских технологий в процессе учёта доходов государственного бюджета. // Молия. -Тошкент. 2012. №4. – Б.78-82.

40. Вавилов А., Трофимов Г. Стабилизация и управление государственным долгом России. // Вопросы экономики. 2010. № 12. – С.
41. Волков Ю.Б. Состояние и перспективы информатизации региональными финансами в Ростовской области. // Вестник Адигейского государственного университета. – М.: Серия 1. 2012. – 272 с.
42. Islomqulov A., Egamova U. Globalashuv sharoitida davlat moliyasiga ta'sir etuvchi tahdidlar. // Birja Ekspert. – Toshkent. 2011. № 3. – В. 23-26.
43. Омонова Ф., Зикриллаева Н. Парламентская форма контроля государственного бюджета страны. // Иқтисод ва молия. – Тошкент. 2013. №3. – Б. 37-42.
44. Сафаров Ш.. Об эффективном обслуживании государственного долга и единый казначейский счёт. // Молия. – Тошкент. 2013. – №1. – Б. 103-108.
45. Hashim A. and Allan B. Treasury Reference Model. IMF and World Bank. 2010. – 135 p.
46. Шамсиев Н. Особенности современной бюджетной системы Республики Узбекистан. // Биржа Эксперт. – Тошкент. 2012. №5. – Б. 53-55.
47. Haydarov M. Budjet tashkilotlarida ichki auditni tashkil qilishda risklarni baholash mohiyati. // Iqtisod va moliya. – Toshkent. 2012. – №9. – В. 60-65.
48. Haydarov N. Davlat qarzlarni bartaraf etish masalalari. // Moliya. – Toshkent. 2013. – №1. – В. 14-19.
49. Ешназаров Т. Особенности кассового планирования и управление денежных средств. // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. Тошкент. 2007. №10. – С 23-26.
50. Eshnazarov T. Davlat moliyasi tizimini takomillashtirish va uni rivojlantirish omillari. // Iktisod va moliya. – Toshkent. 2012. – №12. – В. 51-56.
51. Temirov M. Davlat moliyasi: yangi texnologiyalar va ularni moliyalashtirish. // Iqtisod va moliya. – Toshkent. 2013. №6. – В. 19-22.

- 52.Sharopova M. Ijtimoiy soha xarajatlari samaradorligini oshirishda budjetdan moliyalashtirish tamoyillarining ahamiyati. // Moliya. -Toshkent. 2013. №1. – B. 32-35.
- 53.Qosimova G.A. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va budjet ijrosining G‘aznachilik sharoitida davlat qarzlarini boshqarish. Davlat moliyasini isloh etishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amadiy anjuman tezislar to‘plami. Toshkent. Iqtisod-moliya. 2010 yil. 19 noyabr. 111-115 b.
- 54.Qosimova G.A. G‘aznachilik sharoitida budjet-soliq va pul-kredit siyosatining muhim tadbirlari. O‘zbekistonda sug‘urta bozorining rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. -Toshkent. 2012. –B.390-393.
- 55.Qosimova G., Maxmudov J. G‘aznachilik tizimi faoliyatini tashkil etishda rivojlangan mamlakatlar tizimidan foydalanish. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliya, bank, soliq, sug‘urta, qimmatli qog‘ozlar bozori, investitsiya, buxgalteriya hisobi va audit tizimlarini takomillashtirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. - Toshkent. 2012. –B.43-44.
- 56.Qosimova G. Budjet mablag‘lari samaradorligini oshirish. \ Jamiyat va boshqaruv. . -Toshkent. 2010. №1. –B.70-72.
- 57.Qo‘chqorov T. O‘zbekistonda milliy G‘aznachilikning avtomat-lashtirilgan axborot tizimini joriy etish istiqbollari. \ Moliya. -Toshkent. 2011. № 2. –B.137-141.
- 58.Qosimova G., Elmurodov U. G‘aznachilik sharoitida budjet tashkilotlaridagi risklarni boshqarish.\ Birja Ekspert. -Toshkent. 2012. № 6. –B. 3-6.
- 59.Qosimova G.A. G‘aznachilik tizimida davlat xaridlarini samarali boshqarish. \ Biznes-Ekspert. 2013 yil. №10-11. –B.6-8.
- 60.O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko‘rsatkichlari hamda

2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari. Statistik to'plam – T.: «O'zbekiston». 2011. – 140 b.

III. Internet-sayt ma'lumotlari

1. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.
2. www.treasury.uz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi.
3. www.gov.uz O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali.
4. www.mf.uz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
5. <http://www.soliq.uz/uz> O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq Qo'mitasi.